

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA  
UNIVERSITETI**

## **METALLURGIYADA ISSIQLIK TEXNIKASI**

“5310300-Metallurgiya” ta’lim yo‘nalishi bakalavriat talabalar uchun amaliy  
mashg‘ulotlarni bajarish uchun uslubiy qo‘llanma

Tuzuvchilar: B.T. Berdiyarov, Sh.A. Muhametdjanova

“Metallurgiya” kafedrasi talabalari uchun “Metallurgiyada issiqlik texnikasi”fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarishda qo‘llaniladigan uslubiy qo‘llanma. -Toshkent, ToshDTU, 2016. 64 bet.

Ushbu uslubiy qo‘llanma “5310300 Metallurgiya” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlashda o‘qitiladigan “Metallurgiyada issiqlik texnikasi” fani dasturi asosida tuzilgan va kafedra majlisida tasdiqlangan. Amaliy ishlarini bajarish uchun uslubiy qo‘llanma “Metallurgiya” yo‘nalishida ta’lim olayotgan bakalavriat talabalari uchun mo’ljallangan.

Uslubiy qo‘llanma “Metallurgiyada issiqlik texnikasi” fanining o‘quv uslubiy va ishchi dastur asosida tuzilgan.

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti ilmiy-uslubiy kengashi qarori asosida chop etildi.

Taqrizchilar : M.M. Yakubov- "Fan va taraqiyot" DUK raisi orinbosari, t.f.n., prof.

Valiyev X.R. -ToshDTU. Geologiya va konchilik ishi fakulteti, "Metallurgiya " kafedrasi dotsenti.

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2016

**1-amaliy mashg‘ulot**  
***Metallurgiyada qo‘llaniladigan yoqilg‘ilarning yonishini metodik hisoblash***  
**(2 soat)**

Yoqilg‘ilarning yonishini hisoblashning ahamiyati quyidagilardan iborat:  
 yoqilg‘ining issiqlikga chidamliligi;  
 yoqilg‘ining to‘liq yonishi uchun kerak bo‘ladigan havo miqdori;  
 yonish mahsulotlarining tarkibi va miqdori;  
 yonish harorati.

*Yonishni* hisoblash ishchi yoqilg‘i uchun olib boriladi.

Suyuq va qattiq yoqilg‘ilarning tarkibi odatda elementar analiz natijalari bo‘yicha berilgan bo‘ladi. Tarkibi har xil bo‘lgan yoqilg‘ini ishchi yoqilg‘iga qayta hisoblash quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$X^{ish} = X^0 \frac{100 - (P + A^{ish} + W^{ish})}{100}, \% \quad (1)$$

$$X^{ish} = X^{yo} \frac{100 - (A^{ish} + W^{ish})}{100}, \% \quad (2)$$

$$X^{ish} = X^q \frac{100 - W^{ish}}{100}, \% \quad (3)$$

bu yerda  $X_{ish}$  - ishchi yoqilg‘ida ba’zi elementning miqdori, %;  
 $X^0$ ,  $X^{yo}$ ,  $X^q$  - organik, yonuvchi va quruq yoqilg‘ilar tarkibidagi elementning miqdori, %.

Gazsimon yoqilg‘i tarkibi uni tashkil etuvchi gazlar  $\text{SO}_2$ ,  $\text{CO}$ ,  $\text{CH}_4$ ,  $\text{H}_2$  aralashmalarni foizlardagi miqdori beriladi. Odatda yoqilg‘i tarkibida bo‘lgan namlik darajasi uning tarkibida suvni gramlardagi miqdorini hajmiga nisbati bilan belgilanadi. Quruq xolda gazni nam holdagi gazga nisbati quydagagi formuladan aniqlanadi:

$$X^n = X^q \frac{100}{100 + 0,1242W}, \% \quad (4)$$

Bu yerda : $X_n$ -nam olda gazning tarkibida komponentning miqdori, %

$X_v$  - xudi shuningdek quruq gazdagi komponentning miqdori, %.

$$X_{H_2O}^q = 0,1242W \quad (5)$$

Yoqilg‘i tarkibida moddalar, havoning kislороди bilan o‘zaro ta’sirlanganda , ya’ni oksidlanganda ma’lum miqdorda issiqlik ajratib chiquvchi komponentlardan tashkil topgan. Agar yoqilg‘ining tarkibi ma’lum bo’lsa unda uning yonish issiqligini, havo sarfini va yonish natijasida hosil bo‘lgan komponentlar miqdorini yoqilg‘ilar tarkibidagi komponentlarni yonish reaksiyasi orqali aniqlash mumkun.

Texnik xisobotlarni bajarishda yoqilg‘ining issiqlik sig‘imini empirik formulasidan foylananib aniqlash mumkin. Qattiq va suyuq holdagi yoqilg‘ilarni xisoblashda D.I.Mendeleev formulalari yetarli aniq ko’rsatgichlarni beradi.

$$X_h^{ish} = 4,187 [81C^{ish} + 300H^{ish} - 26(O^{ish} - S^{ish}) - 6(W^{ish} + 9H^{ish})] \quad (6)$$

Gazsimon yoqilg‘ilar uchun yonish issiqligi quyidagi formula orqali aniqlandi.

$$Q_h^p = 4,187[30,2CO_2^{nam} + 25,8H_2^{nam} + CH_4^{nam} + 152,3C_2H_6 + 218C_3H_8^{nam} + 283,4C_4H_{10}^{nam} + 349C_5H_{12}^{nam} + 141,1C_2H_4^{nam} + 133,8C_2H_2^{nam} + 55,9H_2 - 4,82H_2O^{nam}] \text{,kDj/m}^3 \quad (7)$$

Qattiq va suyuq xoldagi gazlarning yonishi uchun sarflanadigan kislorod nazariy miqdorini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$L_{naz} = [0,0889C^{ish} + 0,2667H^R + 0,0333(S^{ish} + O^{ish})] \cdot (1 + 0,0124d^{nam}) \frac{21}{U}, m^3/kg \quad (8)$$

Bu yerda  $d_h$  - quruq havodagi namlik miqdori, g/m<sup>3</sup>;

$U$  - havodagi kislorod miqdori, % (xajm).

Havoning amaliy miqdori quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$L_{amaliy} = \alpha L_{nazariy}, m^3/kg \quad (9)$$

$\alpha$  - qo'shimcha havoning ko'rsatuvchi koeffitsienti .

Har xil turdag'i yoqilg'ilar uchun  $\alpha$  miqdori quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval 1.1

Har xil turli yoqilg'ilar uchun  $\alpha$  miqdori.

Shaxtali yoqilg'idagi o'tin	1,25-1,35
Qo'l mexnat orqali qizdirish uchun qo'llaniladigan tosh ko'mir:	1,50+1,70
Mexanik qizdirishga qo'llaniladigan tosh ko'mir:	1,20-1,40
Changsimon yoqilg'i:	1,1+1,20
Mazut:	1,08+1,20
Gazli yoqilg'i:	1,05+1,10

Yonish natijasida chiqgan mahsulotlar miqdori (suyuq va qattiq yoqilg'ilar), m<sup>3</sup>/kg, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\left. \begin{array}{l} V_{CO_2} = 0,0187C^{ish}; \\ V_{H_2O} = 0,112H^{ish} + 0,0124W^{ish} + 0,0124d \\ V_{SO_2} = 0,007S^{ish}; \\ V_{O_2} = \frac{U}{100}(\alpha - 1)L_{meop}; \\ V_{N_2} = 0,008N^{ish} + (1 + \frac{U}{100}) \cdot L_{namaliy} \end{array} \right\} \quad (10)$$

Gazsimon mahsulotlarning umumiyl miqdori  $V^G$  m<sup>3</sup>/kg quydagiga teng:

$$V_g = V_{CO_2} + V_{H_2O} + V_{SO_2} + V_{O_2} + V_{N_2} \quad (11)$$

Yonish natijasida chiqgan mahsulotlar tarkibi, %:

$$\left. \begin{array}{l} CO_2 = \frac{V_{CO_2}}{V_e} \cdot 100; \\ H_2O = \frac{V_{H_2O}}{V_e} \cdot 100 \end{array} \right\} \quad (12)$$

Gazsimon yoqilg'i uchun havoning nazariy miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi,  $m^3/m^3$ :

$$L_{nazr} = \frac{0,5CO^{nam} + 0,5H_2^{nam} + 2CH_4^{4nam} + \sum(m+n/4)C_mH_n^{nam} + 1,5H_2S^{nam} - O_2^{nam}}{U} \quad (13)$$

Gaz yonishi uchun havoning amaliy miqdori:

$$L_{amal} = \alpha L_{nazaniy}, m^3/m^3 \quad (14)$$

Gaz yonganda ajralib chiqadigan mahsulotlar miqdori,  $m^3/m^3$ :

$$\left. \begin{array}{l} V_{CO_2} = [CO_2^{nam} + CO^{nam} + CH_4^{nam} + \Sigma(mCmH_n^{nam})] \cdot 0,01 \\ V_{H_2O} = [H_4^{nam} + 2CH_4^{nam} + \Sigma(\frac{n}{2}CmH_n^{nam}) + H_2S^{nam} + H_2O^{nam} + 0,124L_{amaliy} \cdot d_{nam}] \cdot 0,01; \\ V_{O_2} = U(\alpha - 1)L_{nazaniy} \cdot 0,01; \\ V_{SO_2} = 0,01H_2S^{nam}; \end{array} \right\} \quad (15)$$

Gaz yonishi natijasida ajralib chiqqan mahsulotlarning umumiy miqdori,  $m^3/m^3$ :

$$V_g = V_{CO_2} + V_{H_2O} + V_{N_2} + V_{O_2} + V_{SO_2} \quad (16)$$

Gaz yonish natijasida chiqgan mahsulotlar tarkibi, %:

$$\left. \begin{array}{l} CO_2 = \frac{V_{CO_2}}{V_a} \cdot 100; \\ H_2O = \frac{V_{H_2O}}{V_a} \cdot 100 \text{ vahk..} \end{array} \right\} \quad (17)$$

Yonish natijasida chiqgan mahsulotlar zichligini  $\rho_m$ , kg/m<sup>3</sup>, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\rho_m = \frac{44CO_2 + 18H_2O + 28N_2 + 32O_2 + 64SO_2}{22,4 \cdot 100}$$

(18)

Bu yerda: CO<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>O, N<sub>2</sub>, SO<sub>2</sub>, - yongan mahsulotlar tarkibida bo'lgan gazlar miqdori, %.

Yongan mahsulotlar issiqlik sig'imini C<sub>yo</sub> quyidagicha aniqlanadi kkal/(m<sup>3</sup>/grad):

$$C_{yo} = \frac{C_{CO_2}V_{CO_2} + C_{H_2O}V_{H_2O} + C_{N_2}V_{N_2} + C_{O_2}V_{O_2} + C_{SO_2}V_{SO_2}}{V_{yo}} \quad (19)$$

Yonish uchun amaliy harorat quyidagi formuladan aniqlanadi (ongan mahsulotlar haqiqiy harorati):

$$t_{amal} = \frac{Q_p^{ish} + Q_{fiz} - Q_{diss} - q_{yoqot}}{\sum V_{yo} \tilde{N}_{yo}} \quad (20)$$

bu erda Q<sub>p</sub><sup>ish</sup> - yoqilg'ining past miqdorda issiqlik berish qobilyati, kDj/kg (kJ/m<sup>3</sup>);

Q<sub>fiz</sub> - havo va yoqilg'ining tarkibida bo'lgan fizikaviy issiqlik miqdori kDj/kg (kJ/m<sup>3</sup>), ya'ni:

$$Q_{fiz} = Q_{fiz}^{yo} + Q_{fiz}^h \quad (21)$$

$$Q_{fiz} = m_{yo}s_{yo}t_{yo} + v_h s_h t_h \quad (22)$$

$Q_{diss}$  -  $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$  va  $\text{SO}_2$  dissotsiatsiyalash uchun issiqlik miqdori quyidagicha aniqlanadi:



$Q_{dis}$ - qiymati quyidagi tenglamadan topiladi:

$$Q_{dis} = 10886 \cdot A \cdot V_{\text{H}_2\text{O}} + 12561 \cdot V \cdot V_{\text{CO}_2} + S \cdot V_{\text{SO}_2} \quad (24)$$

Bu yerda  $A$ ,  $V$ ,  $S$  -  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{SO}_2$  laring dissotsiatsiya darajasi.

$V_{\text{H}_2\text{O}}$ ,  $V_{\text{CO}_2}$ ,  $V_{\text{SO}_2}$  - normal sharoitda yoqilg'i yonganda ajralib chiqgan  $\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{SO}_2$  larnig hajmi, m<sup>3</sup>.

$Q_{yoq}$  - yonish jarayonida atrof muhitni isitish uchun sarflanadigan issiqlik miqdori.

Ammo  $t_{amaliy}$  miqdorini aniqlash uchun yuqorida keltirilgan formuladan issiqlik sarfi  $q_{yoq}$  miqdorini aniq bilmaganligi tufayli foydalanish mumkun emas. Shuning uchun η pirometrik koefisienti kiritilgan, uning miqdori yonish sharoitidan kelib chiqib 0,6 - 0,9 ga tang. Shunda (20) formula ko'rinishi:

$$t_{amal} = \eta \frac{Q_p^{ish} + Q_{fiz} - Q_{dis}}{\sum V_{yo} \tilde{N}_{yo}} ; k \quad (25)$$

Nazorat savollari:

1. Suyuq yoqilg'ini ishchi yoqilg'iga qayta hisoblash uchun qanday formuladan foydalanadi?
2. Qattiq yoqilg'ini ishchi yoqilg'iga qayta hisoblash uchun qanday formuladan foydalanadi?
3. Gazsimon yoqilg'ini ishchi yoqilg'iga qayta hisoblash uchun qanday formuladan foydalanadi?
4. Quruq xolda gazni nam xoldagi gazga nisbati qaysi formula yordamida aniqlanadi?
5. Yongan mahsulotlar issiqlik sig'imini qaysi formuladan aniqlanadi?
6. Yonish uchun amaliy harorat qanday hisoblanadi?

## 2-amaliy mashg'ulot

### *Qattiq yoqilg'ilarning yonishini hisoblash*

*(2 soat)*

Yoqilg'ining tarkibi quyidagicha (ko'mir kukuni), % hisobida:  
 $S^{yo} = 87,0$ ;  $N^{yo} = 5,0$ ;  $S^{yo} = 1,0$ ;  $N_2^{yo} = 2,0$ ;  $O_2^{yo} = 5,0$ ;  $W^{ish} = 2,0$ ;  $A_p^{quruq} = 10,0$ .

1. Ko'mir kukunining berilgan tarkibi bo'yicha yoqilg'ining ishchi massasini topamiz %:

$$A^{ish} = A^q \frac{100 - W^{ish}}{100} = 10,0 \frac{100 - 2,0}{100} = 9,8;$$

$$S^{ish} = S^{yo} \frac{100(A^{ish} + W^{ish})}{100} = 87,0 \frac{100(9,8 + 2,0)}{100} = 76,734.$$

Shunga o'xshagan xolda  $N^{ish}$ ;  $S^{ish}$ ;  $N_2^{ish}$ ;  $O_2^{ish}$ ;  $W^{ish}$  larning ham qiymatini topamiz. Bularning jami miqdori 100%ni tashkil etadi.

2.Yonish mahsulotlarining tarkibini va miqdorini hamda havo sarfini aniqlaymiz (xisoblashni 1 kg ko'mir kukuni bo'yicha olib boramiz):




Yoqish uchun kerak bo'ladi kislorod miqdoi:

$$O_2 = 0,767 \frac{32}{12} = 2,041 \text{ kg}$$

Yonish natijasida xosil bo'ladi modda :

$$SO_2 = 0,767 \frac{44}{12} = 2,8085 \text{ kg} \quad \text{yoki} \quad 2,808 \frac{22,4}{44} = 1,432 \text{ m}^3.$$



Yonish uchun kerak bo'ladi kislorod miqdori:


$$0,0441 \frac{16}{12} = 0,3528 \text{ kg.}$$

Hosil bo'ladi:

$$N_2O = 0,0441 \frac{18}{2} = 0,3969 \text{ kg}, \text{ yoki } 0,3969 \frac{22,4}{18} = 0,4921 \text{ m}^3.$$

Yoqilg'ining namligini hisobga olgan holda

$$N_2O = 0,3969 + 0,02 + 0,04169 \text{ kg}$$



Kerak bo'ladi kislorod miqdori:

$$O_2 = 0,00882 \frac{32}{32} = 0,00882 \text{ kg.}$$

Hosil bo'ladi:

$$SO_2 = 0,00882 \frac{64}{32} = 0,01764 \text{ kg} \quad \text{yoki} \quad 0,01764 \frac{22,4}{64} = 0,00617 \text{ m}^3.$$

Yonish uchun kerak bo'ladi kislorod miqdori:

$$O_2 = 2,0411 + 0,3528 + 0,00882 = 2,40272 \text{ kg.}$$

Ulardan yoqilg'i tarkibiga 0,0441 kg kiradi.

Shuni inobatga olgan holda kerak bo'lgan kislorod miqdori:

$$O_2 = 2,40272 - 0,0441 = 2,3586 \text{ kg} \quad \text{yoki} \quad 2,3586 \frac{22,4}{32} = 1,651 \text{ m}^3.$$

Havo tarkibini kislorod bilan birga azot ham tashkil qiladi. Uning miqdori quyidagicha:

$$2,3586 \frac{79}{21} = 8,8730 \text{ kg} \quad \text{yoki} \quad 8,8730 \frac{22,4}{28} = 6,9984 \text{ m}^3.$$

Havoning ortiqcha sarflanish koeffitsiyenti  $\alpha=1,3$  deb qabul qilinadi.

Bundan kelib chiqadiki 1kg ko'mir kukuni uchun kerakli moddalar miqdori:

$$O_2 = 2,3586 \cdot 1,3 = 3,0661 \text{ kg}, \text{ yoki} \quad 3,0661 \frac{22,4}{32} = 2,146 \text{ m}^3.$$

$$N_2 = 8,873 \cdot 1,3 = 11,525 \text{ kg}, \text{ yoki} \quad 11,525 \frac{22,4}{28} = 9,22 \text{ m}^3.$$

Jami (havo) 14,5911 kg, yoki 11,366 m<sup>3</sup>.

Pechdan chiquvshi gazlar tarkibida erkin kislorod miqdori:

$$3,0661 - 2,3586 = 0,7075$$

3. Bajarilgan hisobotlar natijasida olingan ma'lumotlarni 2.1 jadvalga kiritiladi.

## 2.1 jadval

1 kg ko'mir kukunining yonishidagi gazlar miqdori va tarkibi

Tashkil etuvshilar	Miqdori			
	Kg		Hajmi	
	kg	%	m <sup>3</sup>	%
CO <sub>2</sub>	2,8085	18,18	1,4323	12,3
SO <sub>2</sub>	0,01764	0,0113	0,00617	0,053
H <sub>2</sub> O	0,4169	2,7	0,52	4,45
O <sub>2</sub>	0,7075	4,71	0,4952	4,2
N <sub>2</sub>	11,5426	74,43	9,234	79,0
Jami:	15,593	100	11,6876	100

4. Ko'mir kukunining issiqlikga chidamliligini quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Q=4,187[78,5S^{ish}+289H^{ish}-26(O^{ish}-S^{ish})-6(9H^{ish}+W^{ish})]= 78,5 \cdot 76,734 + 289 \cdot 4,41 - 26(4,41 - 0,882) - 6(9 \cdot 4,41 + 2,0)] = 4,187(6030 + 1270 - 91 - 476,3) = 28210 \text{ kDj/kg.}$$

5. Ko'mir kukunining yonish haroratini quyidagi formula orqali aniqlaymiz:

$$t_{naz} = \frac{Q_p^{ish} + Q_{fiz} - Q_{diss}}{\sum V_{yo} C_{yo}} \quad (26)$$

25 °C da yoqilg'i va havoning fizik issiqligini aniqlanadi:

$$Q_{fiz} = S_h V_h T_h + S_{yo} V_{yo} T_{yo} = 1,298 \cdot 14,591 \cdot 25 + 1,005 \cdot 1 \cdot 25 = 496,52 \text{ kDj}$$

$\sum V_{yo} C_{yo}$  - Yonish jarayonida hosil bo'ladigan gazlar hajmi:

$$Q_{diss} = 108866 \text{ a- } V_{H2O} + 12561 \text{ b- } V_{SO_2}, \text{ kDj}$$

bu yerda: a va b - SO<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>O dissotsiatsiyalanish darajasi grafik bo'yicha aniqlanadi.

## 2.2-Jadval

Ko'mir kukuninig yonish jarayonining material balansi

Materiallar va maxsulotlar	C	H <sub>2</sub>	S	O <sub>2</sub>	N <sub>2</sub>	Qolgan-lar	Jami
<b>Keldi:</b>							
Ko'mir kukuni	0,76 73	0,04 63	0,00 88	0,05 9	0,0176	0,098	1,0
Havo				3,06 61	11,525		14,591 1
Jami	0,76 73	0,04 63	0,00 88	3,12 81	11,542 6	0,098	15,591 1

Olindi:					
Gazlar:	0,76		2,04		2,8085
CO <sub>2</sub>	73		12		
H <sub>2</sub> O		0,04 63	0,37 06		0,4169
SO <sub>2</sub>		0,00 88	0,00 88		0,0176
O <sub>2</sub>			0,70 75		0,7075
N <sub>2</sub>				11,542 6	11,54
Kuyindi: A					0,098
Jami	0,76 73	0,04 63	0,00 88	3,12 81	11,542 6
					0,098
					15,591 1

a va b  $\sum V_{yo} C_{yo}$  qiymatlarini topish kerak va shu bilan birgalikda olish haroratini aniqlash kerak.

T = 2173 K deb qabul qilamiz

T = 2173 K da ma'lumotnomaga binoan gazlarning issiqlik sig'imi:

S<sub>SO2</sub>=2,408; S<sub>N20</sub> = 1,943; S<sub>N2</sub> = 1,474; S<sub>SO2</sub>; =2,378; S<sub>O2</sub> =1,562.

Gazlarning xajmi:

CO<sub>2</sub>=1,43; H<sub>2</sub>O=0,52; N<sub>2</sub>=8,32; SO<sub>2</sub>=0,006; O<sub>2</sub>=0,495

Partsial bosimi:

$$\begin{aligned} P_{CO_2} &= 0,01; \\ P_{H_2O} &= 0,01 \end{aligned}$$

Qiymatlar: a = 0,04 va b = 0,12.

Bu shartlarda:

$$t_{naz} = \frac{28210 + 496,52 - (0,12 \cdot 1,43 \cdot 12561 + 0,04 \cdot 0,52 \cdot 10886)}{1,43 \cdot 2,408 + 0,52 \cdot 1,943 + 8,32 \cdot 1,474 + 0,006 \cdot 2,378 + 0,496 \cdot 1,562} + 273 = 1775 \text{ K.}$$

T=1973 K haroratni deb belgilanadi. Bu haroratda:

S<sub>SO2</sub>=2,374; S<sub>N20</sub> = 1.901; S<sub>N2</sub> =1,461; S<sub>SO2</sub>=2,382; S<sub>O2</sub> =1.545;

a = 0,02 H<sub>2</sub>O; b = 0,04 SO<sub>2</sub>.

Bundan kelib chiqqan xolda

$$t_{naz} = \frac{28210 + 364,7 - (0,02 \cdot 0,52 \cdot 10886 - 0,04 \cdot 1,43 \cdot 12561)}{1,43 \cdot 2,374 + 0,52 \cdot 1,901 + 8,32 \cdot 1,461 + 0,006 \cdot 2,382 + 0,495 \cdot 1,545} + 273 = 1876 \text{ k.}$$

Shunday qilib t<sub>nazar</sub>=1876 berilgan haroratga yaqin qiymatlarni tashkil etadi.

$\eta=0,85$  tengligini bilgan holda amaliy jixatdan yonish harorati aniqlanadi.

$$T_{amaliy} = 0,85 \cdot 1876 = 1595 \text{ K}$$

Nazorat savollari:

1. Ko'mir kukunining ishchi massasini qaysi formuladan aniqlanadi?
2. Yonish natijasida ajralgan mahsulotlarning kimyoviy reaksiyalarini keltiring?
3. Ko'mir kukunining yonish haroratini aniqlab bering.

**3-amaliy mashg‘ulot**  
**Mazut yonishini hisoblash**  
**(2 soat)**

Berilgan 20 markali mazut tarkibi:

C<sup>yo</sup>- 87,2%;  
H<sup>yo</sup>- 11,7%;  
N<sup>yo</sup> - 0,3%;  
O<sup>yo</sup>-0,3%;  
S<sup>yo</sup> - 0,5%;  
Σ-100%;  
W<sup>ish</sup> - 2%; A<sup>ish</sup>-0,1%.

Yoqilg'ining ishchi massasini qayta hisoblash uchun quyidagi formula bo'yicha aniqlaymiz,( % da):

$$C^{ish} = C^{ish} \frac{100 - (A^{ish} + W^{ish})}{100} = 87,2 \cdot 0,979 = 85,3$$

$$H^{ish} = H^{yo} \frac{100 - (A^{ish} + W^{ish})}{100} = 11,7 \cdot 0,979 = 11,5.$$

Shunga o'xshash holda N<sup>ish</sup>, O<sup>ish</sup>, S<sup>ish</sup> laming ishchi massasini qayta aniqlaymiz.  
Bu yerdan nam yoqilg'ining ishchi tarkibi. %:

S<sup>ish</sup>-85,3; H<sup>ish</sup>- 11,5; N<sup>ish</sup>-0,3; O<sup>ish</sup> - 0,3; S<sup>ish</sup>-0,5; A<sup>ish</sup>-0,1; W<sup>ish</sup> -2,0;

Hisobot 1 kg mazut bo'yicha olib boriladi.

1. Mazutning yonish issiqligini D.I.Mendeleyev formulasi yordamida aniqlaymiz:  
 $Q_p^{ish} = 339S^{ish} + 103ON^{ish} - 108,9(O^{ish}-S^{ish}) - 25W^{ish}$  kDj/kg.

Tashkil etuvchilarining qiymatlarini formulaga qo'ysak quyidagi ifoda olinadi:

$$Q_p^{ish} = 339 \cdot 85,3 + 1030 \cdot 11,5 - 108,9(0,3 - 0,5) - 25 \cdot 2 = 40734 \text{ kDj/kg.}$$

1 kg mazutni yoqish uchun nazariy jixatdan kerak bo'ladiqan quruq havo miqdori aniqlanadi:

$$L_0 = 0,0889S^{ish} + 0,265N^{ish} - 0,0333 \cdot (Q^{ish} - S^{ish}) = 0,0889 \cdot 85,3 + 0,265 \cdot 11,5 - 0,0333(0,3 - 0,5) = 10,64 \text{ m}^3/\text{kg (n. sh.)}.$$

Sarflanih koeffitsienti  $\alpha=1,3$  ga teng bo'lganda kerakli havoning miqdori.  
 $L_a = 10,64 \cdot 1,3 = 13,83 \text{ m}^3/\text{kg(n.sh.)}$ , yoki 17,81 kg/kg, shu jumladan:

$$O_2 = \frac{13,83 \cdot 21}{100} = 2,9 \text{ m}^3/\text{kg} \text{ yoki } 4,14 \text{ kg/kg.}$$

$$N_2 = \frac{13,83 \cdot 79}{100} = 10,93 \text{ m}^3/\text{kg} \text{ yoki } 13,67 \text{ kg/kg.}$$

Mazut yonishida hosil bo'ladiqan maxsulotlarning xajmini aniqlaymiz:

$$V_{CO_2} = 0,01855S^{ish} = 0,01855 \cdot 85,3 = 1,582 \text{ m}^3/\text{kg (n. sh.)} \text{ yoki } 33,16 \text{ kg/kg.}$$

$$V_{SO_2} = 0,007S^{ish} = 0,007 \cdot 0,5 = 0,0035 \text{ m}^3/\text{kg}, \text{ yoki } 0,01 \text{ kg/kg.}$$

$$V_{H_2O} = 0,112N^{ish} + 0,0124W^{ish} = 0,112 \cdot 11,5 + 0,0124 \cdot 2 = 1,31 \text{ m}^3/\text{kg} \text{ yoki } 1,05 \text{ kg/kg.}$$

$$V_{N_2} = 0,79L_a + 0,008N^{ish} = 0,79 \cdot 13,83 + 0,008 \cdot 0,3 = 10,928 \text{ m}^3/\text{kg} \text{ yoki } 13,67 \text{ kg/kg.}$$

$V_{O_2} = 0,21(\alpha-1)L_O = 0,21(1,3-1)10,61 = 0,67 \text{ m}^3/\text{kg}$ , yoki  $0,957 \text{ kg/kg}$ .  
Olingan natijalarni 3.1 jadvalga kiritamiz.

### 3.1-jadval

1 kg mazut yonganda hosil bo‘lgan gazlarning tarkibi:

Tashkil etuvchilar:	CO <sub>2</sub>	SO <sub>2</sub>	H <sub>2</sub> O	N <sub>2</sub>	O <sub>2</sub>	Jami
Miqdori m <sup>3</sup> /kg (n. sh.)	1,562	0,0035	1,31	10,928	0,67	17,4945
%	10.9	0.02	9.0	75,48	4.6	100

Yonishning kalorimetrik xaroratini aniqlaymiz:

$$t_k = \frac{Q_p^{ish}}{\sum V_{yo} C_{yo}} \quad (27)$$

$$t_k = \frac{Q_H^p}{\sum V_\Gamma C_\Gamma} \quad (28)$$

$$V_{CO_2} C_{CO_2} = 1,582 \cdot 2,094 = 3,312.$$

$$V_{SO_2} C_{SO_2} = 0,0035 \cdot 2,177 = 0,008.$$

$$V_{H_2O} C_{H_2O} = 1,31 \cdot 1,662 = 2,178.$$

$$V_{N_2} C_{N_2} = 10,928 \cdot 1,361 = 14,871.$$

$$V_{O_2} C_{O_2} = 0,67 \cdot 1,424 = 0,254$$

$$\sum V_{yo} \tilde{N}_{yo} = 21,323$$

C<sub>G</sub>-973 K bo‘lishi mumkin.

$$t_k = \frac{40734}{21,323} + 273 = 2183, K$$

Yonish jarayondan haroratidan nazariy haroratini aniqlaymiz:

$$T_{naz} = \frac{Q_p^{ish} + Q_{fiz} - Q_{diss}}{\sum V_{yo} \tilde{N}_{yo}} \quad (29)$$


Q<sub>f</sub> - havo va yoqilg‘ining fizik issiqligi, kkal/kg.

$$Q_f^t = ms_T t_T = 1,2094 \cdot 90 = 188,42 \text{ kDj}.$$

$$Q_f^B = Q_f'_{fiz} + Q''_{fiz} = 542 + 752,78 = 1294,78 \text{ kDj}.$$

$$Q_{fiz} = 188,42 + 542 + 752,78 = 1483,21 \text{ kDj}.$$

Q<sub>dis</sub> - SO<sub>2</sub> va H<sub>2</sub>O dissotsiatsiyalanishi uchun kiruvchi issiqlik.



$$Q_{diss} = 10886a \cdot V_{H_2O} + 12561b \cdot V_{CO_2}, \text{ kDj},$$

Bu yerda a va b -  $H_2O$  va  $CO_2$  dissotsiatsiyalanish darajasi.  
 $V_{H_2O}$ ,  $V_{CO_2}$  - normal sharoitda yoqilg'ilarning yonishi natijasida hosil bo'ladigan  $H_2O$  va  $CO_2$  larning hajmi.  
 1 rasmdan a va b larning koeffitsiyent qiymatlarini topamiz  
 $aH_2O = 0,025$  da bug'ning parsial bosimi 0,15 atm teng.  
 $bCO_2 = 0,08$  da bug'ning parsial bosimi 0,2 atm teng.  
 $V_{H_2O} = 1,31$ .  
 $V_{CO_2} = 1,582$ .  
 $Q_{diss} = 10886 \cdot 0,025 \cdot 1,31 + 12561 \cdot 0,08 \cdot 1,582 = 1946,24 \text{ kDj}$

$$t_{nazar} = \frac{110734 + 1294,78 - 1946,24}{21,323} + 273 = \frac{40270,97}{21,323} = 2161 \text{ K}$$

Yonish haroratini nazariy jihatdan aniqlaymiz:

$$t_{amal} = \eta \cdot t_{nazar} \quad (30)$$

$\eta = 0,85$  deb belgilaymiz

$$t_{amal} = 0,85 \cdot 2161 = 1837 \text{ K}$$

Nazorat savollari:

1. Yoqilg'ining ishchi massasini qayta hisoblash uchun qanday formula bo'yicha aniqlaymiz?
2. 1 kg mazutni yoqish uchun (nazariy jihatdan) kerak bo'ladigan quruq havo miqdori qanday aniqlanadi?
3. Yonishning kalorimetrik harorati aniqlang .
4. Nazariy haroratni aniqlash formulasini keltiring.

#### **4-amaliy mashg'ulot** *Gazsimon yoqilg'ilarning yonishini hisoblash* *(2 soat)*

Berilgan quruq tabiiy gaz tarkibi:

$$CH_4^q = 93,2; C_2H_6^q = 0,7; C_3H_8^q = 0,6; C_4H_{10}^q = 1,1; CO_2^q = 0,2; N_2^q = 4,2.$$

Quruq gazdagagi namlik miqdori:  $g_{H_2O}^q = 20 \text{ g/m}^3$ .

1. Namlangan gazning tarkibi aniqlalanadi:

$g_{H_2O}^q = 20 \text{ g/m}^3$  bo'lganda gaz tarkibida suvning bug'i miqdori:

$$V_{H_2O} = 0,124 \cdot g_{H_2O}^q = 0,124 \cdot 20 = 2,48 \text{ m}^3$$

$H_2O = 2,48 \text{ m}^3$  bo'lganda, shunda quyidagicha bo'ldi:

$$SN_4^N = SN_4^q \frac{100}{100 + H_2O} = 93,2 \frac{100}{100 + 2,48} = 90,95\%.$$

Namlangan gazni qayta hisoblashdan so'ng :

$CN_4^N = 90,95$ ;  $C_2N_6^N = 0,68$ ;  $CN_8^N = 0,59$ ;  $C_4N_{10}^N = 1,07$ ;  $CO_2^N = 0,19$ ;  $N_2^N = 4,1$ ;  $H_2O = 2,42$ ;  
 $\sum 100\%$ .

2. Yonish uchun sarflangan havo miqdorini aniqlaymiz:

$$V_{O_2}^1 = 0,01(m + \frac{n}{4}) \sum C_m H_n = 0,01(2CN_4 + 3,5C_2N_6 + 5C_3N_8 + 6,5C_4N_{10}) = \\ = 0,01(2 \cdot 90,95 + 3,5 \cdot 0,68 + 5 \cdot 0,59 + 6,5 \cdot 1,07) = 1,94 \text{ m}^3/\text{m}^3.$$

Havoning nazariy sarfini quyidagicha aniqlaymiz:

$$L_O = \frac{V_{O_2}^1 \cdot 100}{U} = \frac{1,94 \cdot 100}{21} = 9,23 \text{ m}^3/\text{m}^3, \quad (31)$$

Bu yerda U –havoning tarkibida kislorod miqdori,  $U=21\%$ .

Havoning haqiqiy sarfi ( $\alpha=1,1$  teng bo‘lganda):

$$L_\alpha = \alpha \cdot L_O = 1,1 \cdot 9,23 = 10,15 \text{ m}^3/\text{m}^3 \quad (32)$$

3. Yongan mahsulotlar tarkibidagi elementlarning hajmlari,  $\text{m}^3/\text{m}^3$  :

$$V_{CO_2} = 0,01(CO_2 + m \sum C_m H_n) \\ = 0,01(CO_2 + CH_4 + 2C_2H_6 + 3C_3N_8 + 4C_4H_{10}) = \\ = 0,01(0,2 + 90,95 + 2 \cdot 0,68 + 3 \cdot 0,59 + 4 \cdot 1,07) = 0,9856.$$

$$V_{H_2O} = 0,01(\frac{n}{2} \sum C_m H_n + N_2O) = 0,01(2 \cdot CH_4 + 3C_2H_6 + 4CH_8 + 5C_4H_{10} + 2,42) = \\ = 0,01(2 \cdot 90,95 + 3 \cdot 0,68 + 4 \cdot 0,59 + 5 \cdot 1,07 + 2,42) = 1,91.$$

$$V_{N_2} = 0,01[N_2 + (100-U)L_\alpha] = 0,01[4,1 + (100-21) \cdot 10,15] = 8,019.$$

$$V_{O_2} = (\alpha-1) \cdot V_{O_2}^1 = 0,1 \cdot 1,94 = 0,194.$$

Yonish mahsulotlarining umumiy miqdori:

$$V_{umum} = V_{CO_2} + V_{N_2} + V_{H_2O} + V_{O_2} = 0,9856 + 8,43 + 1,91 + 0,194 = 11,52 \text{ m}^3/\text{m}^3.$$

Yonish mahsulotlarini tarkibi, %:

$$SO_2 = \frac{V_{CO_2}}{V_{umum}} \cdot 100 = \frac{0,9856}{11,52} \cdot 100 = 8,55 \text{ va boshqalar} \quad (33)$$

Shunday qilib, qayta hisobotlardan chiqgan natija:

$$SO_2 = 8,55; N_2O = 16,6; N_2 = 72,2; O_2 = 1,65.$$

*4. Yongan mahsulotlarni zishligi:*

$$\rho^{yo} = \frac{44 \cdot CO_2 + 28 \cdot N_2 + 18 \cdot H_2O + 32O_2}{22,4 \cdot 100} = \frac{44 \cdot 8,55 + 28 \cdot 73,2 + 18 \cdot 16,6 + 32 \cdot 1,65}{22,4 \cdot 100} = 1,24 \text{ kg/m}^3.$$

*5. Tabiiy gazning yonish issiqligi aniqlanadi:*

$$\begin{aligned} Q_p^{ish} &= 4,187(30,2CO + 25,8H_2^n + 85,6CH_4^n + 152,3C_{2H_6}^n + 218C_3H_8^n + \\ &+ 283,4C_4H_{10}^n + 349C_5H_{12}^n + 144,1C_2H_4^n + 133,8C_2H_2 + 55,9H_2S - 4,82H_2O^n) \\ &= 4,187(85,6 \cdot 90,95 + 152,3 \cdot 0,68 + 218 \cdot 0,59 + 283,4 \cdot 1,07 - 482 \cdot 2,42) = \\ &= 34456,8 \text{ kJ/m}^3. \end{aligned}$$

*6. Gazning yonish haroratini aniqlash:*

Dastlab  $\alpha = 1,1$  uchun  $T = K$  bo'lganda yonishning kalorimetrik haroratini aniqlaymiz .

Yongan mahsulotlarning boshlang'ich entalpiyasi quyidagicha

$$i_0 = C \cdot t = \frac{Q_p^{ish}}{V_{umum}} = \frac{34456,8}{11,52} = 2991 \text{ kDj/m}^3, \quad (34)$$

Bu yerda  $V_{umumi}$  - gazning yonish natijasida mahsulotlarini umumiy miqdori,  $\text{m}^3/\text{m}^3$ .

Yonish haroratini  $t_k = 2173K$  teng qilib olamiz.

ij entalpiya miqdorini jadvaldan tanlab olamiz:

$$i_{O_2} = 0,0165 \cdot 2971,3 = 49,2.$$

$$i_{CO_2} = 0,0855 \cdot 4634,76 = 396.$$

$$i_{H_2O} = 0,166 \cdot 3657,85 = 606.$$

$$i_{N_2} = 0,732 \cdot 2808,22 = 2060.$$

$$i_{2173} = 3111 \text{ kDj/m}^3.$$

$i_{1800} < i_0$  bo'lgan holatda, haqiqiy kalorimetrik harorat miqdori 2073K past bo'ldi, shunda

$$t_k = 2073 \text{ K}$$

$$i_{CO_2} = 0,0855 \cdot 4360,67 = 372.$$

$$i_{H_2O} = 0,166 \cdot 3429,9 = 557.$$

$$i_{N_2} = 0,732 \cdot 2646,74 = 1930.$$

$$i_{O_2} = 0,0165 \cdot 2800,48 = 46,4.$$

$$i_{2073} = 2859 \text{ kDj/m}^3$$

$i_{800} < i_0$  bo'lganda shunda haqiqiy kalorimetrik harorat 2073 ÷ 2173 K gacha bo'lishi mumkin va quyidagicha ifodalanadi.

$$t_k = 2073 + \frac{2991 - 2859}{3111 - 2859} \cdot 100 = 2125 \text{ K.}$$

Yonishning nazariy haroratini aniqlaymiz:

$$t_{naz} = \frac{Q_p^{ish} + Q_{fiz} - Q_{diss}}{\sum V_{yo} \tilde{N}_{yo}} \quad (35)$$

bu yerda:

$$Q_{fiz} = Q_{fiz}^{\text{dissociation}} + Q_{fiz}^{\text{heat}} = V_{yo} t_{yo} S_{yo} + V_h t_h S_h = 1 \cdot 20 \cdot 1,591 + 10,15 \cdot 20 \cdot 1,298 = 295,31 \text{ kDj/m}^3.$$

$$Q_{diss} = 10886 \cdot a \cdot V_{H_2O} + 1251 \cdot b \cdot V_{CO_2} = 10886 \cdot 0,025 \cdot 1,91 + 12561 \cdot 0,09 \cdot 0,9856 = 1632,93 \text{ kDj/m}^3.$$

a va b ko'rsatkichlarini grafik bo'yicha aniqlaymiz, agar:

$$P_{CO_2} = 0,1; R_{H_2O} = 0,1 \text{ i } t = 2125 \text{ K}$$

$$(V \cdot C)_{CO_2} = 0,9852 \cdot 2,441 = 2,405.$$

$$(V \cdot C)_{H_2O} = 1,91 \cdot 1,934 = 3,695.$$

$$(V \cdot C)_{N_2} = 8,019 \cdot 1,482 = 11,884.$$

$$(V \cdot C)_{O_2} = 0,194 \cdot 0,374 = 0,304.$$

$$\sum V_i C_i = 18,288.$$

$$\text{Shunda } t_{naz} = \frac{34350 + 29516 - 1633}{18,288} = 2078 \text{ K}$$

$$t_{amal} = \eta \cdot t_{naz} = 0,85 \cdot 2078 = 1766 \text{ K} \quad (36)$$

Nazorat savollari:

1. Tabiiy gaz qanday metallurgik pechlarda qo'llaniladi?
2. Namlangan gazni qayta hisoblash maqsadi.
3. Tabiiy gaz yonishi natijasida hosil bo'lgan mahsulotlarni reaksiya yordamida aniqlang?
4. Tabiy gaz yonishi natijasida ajralib chiqayotgan issiqlikning miqdori.

## 5-amaliy mashg'ulot

### ***Tabiiy gaz va mazut aralashmasini yonishini hisoblash (2 soat)***

Berildi: tabiy gaz tarkibi va mazut tarkibi (gazning yonishini xisoboti va mazutni yonishi xisoboti mavzularidan olingan ma'lumotlar bo'yicha)

Mazutning issiqlik bo'yicha qismi 15% tashkil qiladi.

$$\alpha_{gaz} = 1,1; \alpha_{mazut} = 1,3.$$

Mazut 573 K gacha qizdirilgan tabiy gaz bilan kesiladi. Gazning yonishi xisobotidan  $Q_p^{ish} = 34350 \text{ kDj/m}^3$ .

Gaz va mazut miqdorini aniqlaymiz. Gazning  $Q_p^{\text{ish}} = 34350 \text{ kDj/m}^3$  teng bo'lsa issiqlik bo'yicha mazut miqdori quyidagicha bo'lishi kerak:  $0,15 \cdot 34350 = 5152,5 \text{ kDj}$ .  
Shunda gaz hajmi quyidagicha:

$$\frac{34350 - 5152,5}{34350} = 0,85 \text{ m}^3.$$

Mazut miqdori:

$$\frac{5152,5}{Q_{P(M)}^H} = \frac{5152,5}{40735} = 0,13 \text{ kg.}$$

$1 \text{ m}^3$  gaz yonishi uchun havo sarfi  $10,15 \text{ m}^3$  tashkil qiladi (3 misol).  
 $0,85 \text{ m}^3$  gaz yonishi uchun havoning sarfi quyidagiga teng bo'ladi:  $0,85 \cdot 10,15 = 8,62 \text{ m}^3$ .  
 $0,13 \text{ kg}$  mazut yonishi uchun,  $\alpha=1,3$  teng bo'lganda havoning sarfi quyidagicha:  
 $0,13 \cdot L_\alpha = 0,13 \cdot 13,83 = 1,8 \text{ m}^3$ .

Gaz va mazutning yonishi uchun havoning umumy sarfi:  $62 + 1,8 = 63,8 \text{ m}^3$ .

$1 \text{ m}^3$  gaz yonganda hosil bo'lgan mahsulotlarning miqdori  $11,52 \text{ m}^3$  tashkil qilib, ularning tarkibi quyidagicha: 8,55%  $\text{SO}_2$ ; 16,6%  $\text{H}_2\text{O}$ ; 73,2%  $\text{N}_2$ ; 1,65%  $\text{O}_2$ .

$0,85 \text{ m}^3$  gaz yonganda ajralib chiqqan mahsulotlarning hajmi quyidagicha:  $11,52 \cdot 0,85 = 9,8 \text{ m}^3$ .

Mazut yonganda hosil bo'lgan gazlarning hajmi:

$$V_{\text{CO}_2} = 0,13(0,01 \cdot 1,867 \cdot S^{\text{ish}}) = 0,0013 \cdot 1,867 \cdot 85,3 = 0,207 \text{ m}^3.$$

$$V_{\text{H}_2\text{O}} = 0,01 \cdot 0,13(11,2N^{\text{ish}} + 1,24W^{\text{ish}}) = 0,0013(11,2 \cdot 11,5 + 1,24 \cdot 2) = 0,171 \text{ m}^3.$$

$$V_{\text{SO}_2} = 0,007 \cdot 0,13S^{\text{ish}} = 0,007 \cdot 0,13 \cdot 0,5 = 0,00345 \text{ m}^3.$$

$$V_{\text{N}_2} = 0,13(0,79L_\alpha + 0,008N^{\text{ish}}) = 0,13(0,79 \cdot 13,83 + 0,008 \cdot 0,3) = 1,43 \text{ m}^3$$

$$V_{\text{O}_2} = 0,13 \cdot 0,21(\alpha - 1) \cdot 10,64 = 0,13 \cdot 0,21(1,3 - 1) \cdot 10,64 = 0,0885 \text{ m}^3$$

Jami :  $1,897 \text{ m}^3$ .

Tabiiy gaz va mazut aralashmasi yonish natijasida ajralib chiqgan mahsulotlarning hajmi va tarkibi quyidagicha:

$$V_{\text{CO}_2} = 9,8 \cdot 0,0855 + 0,2071,043 \text{ m}^3$$

$$V_{\text{H}_2\text{O}} = 9,8 \cdot 0,166 + 0,171 = 1,8 \text{ m}^3$$

$$V_{\text{SO}_2} = 0,00045 \text{ m}^3$$

$$V_{\text{N}_2} = 9,8 \cdot 0,732 + 1,43 = 8,63 \text{ m}^3$$

$$V_{\text{O}_2} = 9,8 \cdot 0,0165 + 0,0885 = 0,253 \text{ m}^3$$

$$\sum = 11,726 \text{ m}^3$$

Yongan mahsulotlarning tarkibi quyidagicha (%),hajm):

$8,9\% \text{SO}_2$ : 15,4%  $\text{H}_2\text{O}$ ; 73,6%  $\text{N}_2$ ; 2,1%  $\text{O}_2$ ;  $\sum = 100\%$ .

Yongan mahsulotlarning zichligi:

$$\rho^{yo} = \frac{44 \cdot 8,9 + 18 \cdot 15,4 + 28 \cdot 73,6 + 32 \cdot 2,1}{22,4 \cdot 100} = 1,25 \text{ kg/m}^3$$

Nazorat savollari :

1. Qanday metallurgik pechlarida tabiiy gaz va mazut aralashmasi qo'llaniladi?
2. Mazut yonganda hosil bolgan gazlarning hajmini keltiring.
3. Tabiiy gaz va mazut aralashmasi yonish natijasida ajralib chiqgan mahsulotlarning hajmi miqdori.
4. Yongan mahsulotlarning tarkibi qanday?

## **6-amaliy mashg'ulot**

### ***Yallig' qaytaruvchi eritish jarayoni uchun yoqilg'i sarfi va ajralib chiqgan gazlarning tarkibini hisoboti***

**(4 soat)**

Mis boyitmalarini qayta ishlab shteyn olish usullaridan yallig' eritish jarayoni mis ishlab chiqarishda yetakchi o'rnlarda turadi. Buni quyidagicha izoxlasa bo'ladi, ya'ni jarayonning oddiyligi va iqtisodiy samaraliligi tufayli bu usul ishlab chiqarishda keng miqyosda qo'llanilmoqda. Yallig' eritishning asosiy kamchiligi desulfurizatsiya jarayonini boshqarishning imkoniy yo'qilg'i va katta hajmda chiquvchi gazlarning ajralishi. Yoqilg'i ko'p sarflanishi, chiqindi, oqava gaz to'g'ri oshiq havoga chiqarib yuborilishi va oqava gazni sulfat kislotasi olish uchun ishlatib bo'lmaydi, sababi tarkibida sulfid angidridi ( $\text{SO}_2$ ) 1,0-2,0% gacha bo'ladi.

Hozirgi kunga kelib tabiatni muxofaza qilish maqsadida va atrof muhitga chiqarilayotgan turli chiqindilar va zaxarli gazlar miqdorini ko'payishining oldini olish maqsadida, butun jahon olimlari, yallig' eritish o'rniiga boyitmalarни elektr eritish, muallaq holda eritish yoki ularni konverterlarda eritish masalalari o'r ganilmoqda.

### ***Shteyn tarkibi va desulfurizatsiya darajasini hisoblash***

Quyidagi berilgan tarkib bo'yisha boyitmani eritish jarayonida hosil bo'ladigan shlak tarkibini, miqdorini va desulfurizatsiya darajasini aniqlashimiz lozim: Su - 20,0%, S - 34,3%, Fe - 29,2%,  $\text{SiO}_2$  - 13,8%,  $\text{Al}_2\text{O}_3$  - 1,0%,  $\text{CaO}$  - 0,7%, boshqalar - 1%. Hisoblashni quruq 100 kg boyitma bo'yisha olib boramiz.

Bajarilayotgan hisoblashda faqatgina boyitmaning xususiyatlari va boyitmaning ratsional tarkibini hisoblashdagi natijalari bilgan holda olib boramiz.

Boyitma tarkibida mis xalkopirit va kovelin minerallarida 9:1 nisbatta uchraydi. Temir pirit tarkibida va  $\text{CaO}$ -oxak holida uchraydi.

## Mis boyitmasining ratsional tarkibi, %

Minerallar	Cu	S	Fe	Jami
$\text{CuFeS}_2$	18	18,2	15,8	52,0
$\text{CuS}$	2,0	1,0	-	3,0
$\text{FeS}_2$	-	15,1	13,4	28,5
$\text{SiO}_2$	-	-	-	13,8
$\text{Al}_2\text{O}_3$	-	-	-	1,0
$\text{CaCO}_3$	-	-	-	1,25
Boshqalar	-	-	-	0,45
Jami:	20,0	34,3	29,2	100,00

Desulfurizatsiya - qattiq shixtalar va pechga qo‘yiladigan suyuq konvertir shlaklaridagi sulfidlarni kislorod bilan dissotsialanishi oqibatida sodir bo‘ladi. Bizning sharoitda qattiq shixta tarkibida kislorod ishtirok etmaydi. Sulfidlarning oksidlanishi faqatgina suyuq konvertir shlakidagi kislorod evaziga sodir bo‘ladi.

Konverter shlaklaridagi sulfidlarini kislorodsiz oksidlanishidagi desulfurizatsiya darajasini va shteyn tarkibini aniqlash. Boyitma tarkibining ratsional tarkibiga asosan dissotsiatsiyalanish oqibatida ajralgan oltingugirt miqdorini aniqlaymiz. (kg):

Quyidagi reaksiya bo‘yisha  $2\text{SuFeS}_2 \rightarrow \text{Su}_2\text{S} + 2\text{FeS} + \text{S}$  25% S ajralib chiqadi, uning miqdori

$$18,2 \cdot 0,25 = 4,5 ;$$

piritning parchalanishi  $\text{FeS}_2 \rightarrow \text{FeS} + \text{S}$  50% S ajralib chiqadi, uninig miqdori:

$$15,1 \cdot 0,5 = 7,6 ;$$

reaktsiya bo‘yicha  $2\text{CuS} \rightarrow \text{Cu}_2\text{S} + \text{S}$  50% S ajralib chiqadi, unda

$$1,0 \cdot 0,5 = 0,5$$

Jami ajralgan oltingugirt miqdori.  $4,5 + 7,6 + 0,5 = 12,6 \text{ kg}$ .

Shteynga o‘tgan oltingugirt miqdori.  $34,3 - 12,6 = 21,7 \text{ kg}$ , desulfurizatsiya darjasasi esa quyidagiga teng:

$$12,6 : 34,3 = 36,7\%.$$

Xomashyo boyitmalarini eritishda shteynga misning o‘tishi amaliyotdagি ko‘rsatgishlar bo‘yisha hisoblaydigan bo‘lsak u holda bu qiymat 96-98% ni tashkil etadi. Boyitmadan shteynga o‘tgan misning miqdori quyidagisha:

$$20 \cdot 0,98 = 19,6 \text{ kg}.$$

Shteynda shuncha miqdordagi mis quyidagi miqdordagi oltingugirt bilan birikadi:

$$19,6 \cdot 32 : 127,0 = 4,94 \text{ kg}.$$

Shteyndagi qolgan oltingugirt temir bilan birikadi:

$$21,7 - 4,94 = 16,76 \text{ kg}$$

$$16,76 \cdot 55,85 : 32 = 29,2 \text{ kg},$$

Bunday hollarda boyitmali barcha temir miqdori shteyn tarkibiga o'tadi.

Ishlab chiqarish zavodlarida shteyn miqdoridagi oltingugirt miqdori 23 - 27% orasidagi qiymatni tashkil etadi. Hozirgi hisobotimiz uchun biz 25% deb olamiz (V. YA. Mostovish qoidasi). Bunda shteynning chiqishi quyidagiga teng:

$$21,7 : 0,25 = 86,8 \text{ kg},$$

Shteyn tarkibidagi misning miqdori:

$$19,6 : 86,8 \cdot 100 = 22,6\%.$$

B.P.Nedved ma'lumotlari bo'yicha boyitma tarkibidagi misning miqdori bizning misolimizdagidek bo'lsa, unda 5,2% kislorod konvertir shlakidan  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  shaklidagi temir bilan birikadi.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida biz quyidagi dastlabki shteyn tarkibini aniqlaymiz:

	%	kg		%	kg
Cu.....	22,6	19,6	O <sub>2</sub> .....	5,2	4,5
S.....	25,0	21,7	Fe.....	47,2	41,0

Konverter shlakidan shteyn tarkibiga o'tgan temir miqdori

$$41 - 29,2 = 11,8 \text{ kg}.$$

Konvertir shlakidagi magnetit bilan birikkan kislorod miqdorini aniqlash uchun konverter shlakinining tarkibini bilish lozim: Su -3%, SiO<sub>2</sub> - 23%, Fe - 48%, Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub> - 6,1%, O<sub>2</sub> - 15,2%, S - 1,4%, boshqalar - 3,3%. Keladigan konvertir shlakinining miqdori:

$$41 : 0,48 = 85,4 \text{ kg}.$$

Konvertir shlakidagi magnetit miqdorini kislorodning temirga nisbatligi bo'yicha aniqlaymiz.

$$\text{FeO da } \text{O}_2 : \text{Fe} = 16 : 55,85 = 0,286 \text{ kg};$$

$$\text{Fe}_3\text{O}_4 \text{da } \text{O}_2 : \text{Fe} = 64 : 167,55 = 0,382 \text{ kg};$$

$$\text{Bizning shlakda } \text{O}_2 : \text{Fe} = 15,2 : 48 = 0,323 \text{ kg}.$$

Olingan qiymatlardan quyidagi tenglamani tuzamiz.

$$15,2 = 0,268X + (48 - X) 0,382$$

bu yerda  $X$  — FeO ko'rinishda bog'langan temirning miqdori,  $(48 - X)$  esa —  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  ko'rinishda bog'langan temirning miqdori.

Tenglamani yechgan holda  $X = 32,8$ ga tengligini topamiz. Shuncha miqdordagi temir bilan bog'langan kislorod miqdori.

$$32,80 \cdot 16 : 55,85 = 9,40 \text{ kg}.$$

$\text{Fe}_3\text{O}_4$  dagi temir miqdori

$$48 - 32,8 = 15,20 \text{ kg}$$

Undagi kislorod miqdori

$$15,20 \cdot 64 : 167,55 = 5,80 \text{ kg.}$$

Konvertir shlakidagi jami magnetit miqdori:

$$15,20 + 5,80 = 21,0 \text{ kg, yoki } 21,0\%.$$

Konvertir shlaki bilan keladigan magnetit miqdori:

$$41,0 : 0,48 \cdot 0,21 = 17,90 \text{ kg.}$$

Amaliy jihatdan u to‘liqligicha shteyn tarkibiga o‘tadi. Kamroq miqdordagi oltingugirt pech kladkalari orasidan kiruvshi havo bilan oksidlanadi. Dissotsialanishni ham inobatga olgan xolda gazlar tarkibiga o‘tgan jami oltingugirt miqdori:

$$0,80 + 12,6 = 13,40 \text{ kg,}$$

Eritish paytida desulfurizatsiya darajasi quyidagisha qiymatni tashkil etadi.

$$13,40 : 34,3-100 = 39,1\%,$$

shu jumladan 0,8 kg, yoki 2,5% ga yaqini sulfidlarning, oksidlanishi hisobiga.

Yallig‘ qaytaruvchi pechlarda konvertir shlaklaridan misni ajratib olish darajasi 85% ni tashkil etadi. Ya’ni shuncha miss konvertir shlakidan shteyn tarkibiga o‘tadi. (bu qiymat amaliy jihatdan isbotlangan):

$$85,4 \cdot 0,03 \cdot 0,85 = 2,2 \text{ kg.}$$

Oltingugirt mis bilan shteyn tarkibida  $\text{Su}_2\text{S}$  ko‘rinishda ushraydi:

$$2,2 \cdot 32 : 127 = 0,55 \text{ kg.}$$

Konverter shlakidan shteyn tarkibiga o‘tgan oltingugirt:

$$34,3 - 12,6 - 0,80 + 0,55 = 21,45 \text{ kg;}$$

$$\text{mis } 19,6 + 2,2 = 21,8 \text{ kg.}$$

Xomashyo shixtalarini konvertir shlaki qo‘sib eritishda shteyn tarkibi quyidagicha:

	kg	%		kg	%
Si.....	21,8	31.71	Fe.....	41,0	59.6
S.....	1,45	2.11	O <sub>2</sub> .....	4,5	6.5

Hisoblashlar shuni ko‘rsatmoqdaki yallig‘ qaytaruvshi pechlarda boyitmalarini konvertir shlaki bilan qo‘sib eritishda shteyn tarkibiga faqatgina boyitma tarkibidagi temir o‘tmasdan, balki konverter shlaklari bilan xam temir magnetit holida o‘tadi. Buning oqibatida temir pech va konverter orasida doimiy ravishda aylanishiga sabab bo‘ladi.

Nazorat savollari:

1. Yallig‘ qaytaruvchi eritish jarayonining maqsadi?
2. Shteyn nima? Uning tarkibini keltiring.
3. Desulfurizasiya jarayoni qanday bo‘lib o‘tadi?
4. Konverter shlaklari qanay hosil bo‘ladi? Tarkibini misolda yechib bering

## 7-amaliy mashg‘ulot

### *Tarkibi ma’lum bo‘lgan shlakni eritishda kerakli flyus miqdorini hisoblash (2 soat)*

Oldingi hisoblashlardan olingan boyitmani eritish uchun zarur bo‘lgan ohak miqdorini topamiz. Tarkibida 8% CaO mavjud bo‘lgan chiqindi shlaki ustida eritish olib boriladi. Pechga konverter shlaki suyuq holda quyuladi.

Hisobot uchun shteyndagi barcha temir miqdori konverter shlaki tarkibiga o‘tadi deb hisoblaymiz, bunda chiqish 100 kg boyitmaga 85,4 kg ni tashkil etadi. Shlak tarkibini aniqlash uchun eritishning dastlabki balansini tuzamiz.

7.1 jadvaldan ko‘rinib turibdiki (shlak tarkibidagi barcha temir FeO shaklida uchraydi deb hisoblaymiz), bunda kislorodning yetishmovchiligi 0,7 kg ni tashkil etadi. Bu qiymatdan ko‘rinib turibdi eritish jarayoni to‘liq o‘tishi uchun (0,4%) kislorod yetmaydi. Bundan tashqari ahamiyatga ega tamoni shundaki shlak tarkibidagi temirning bir qismi kislorod bilan emas balki oltingugirt bilan bog‘langan bo‘ladi. Bu hisobotni soddalashtirishda ancha qo‘l keladi.

Bu balansdan xulosa qilgan xolda dastlabki shlak tarkibini aniqlaymiz.

$$\text{FeO} = 29,2 : 55,85 \cdot 71,85 = 37,6 \text{ kg.}$$

Flyus ishtirokisiz shlak tarkibi:

	kg	%		kg	%
FeO.....	37,6	45,4	Cu.....	0,5	0,6
SiO <sub>2</sub> .....	33,4	40,3	S.....	0,65	0,8
CaO.....	0,7	0,8	Boshqalar...	3,8	4,6
A <sub>1</sub> O <sub>3</sub> .....	6,2	7,5			

Shlak zishligini kamaytirish va undagi mis miqdorini kamaytirish uchun shixtaga tarkibida 8% CaO bo‘lgan konvertir shlaki qo‘shiladi. Yetmaganiga flyus sifatida oxak qo‘shiladi. Amaliyatda odatga ko‘ra shlak tarkibidagi birikmalarning yeg‘indi miqdori  $\text{FeO} + \text{SaO} + \text{SiO}_2 + \text{A}_1\text{O}_3$  93—96% ni tashkil etadi. Bizning hisobotimiz uchun bu qiymatni 95%. deb olamiz., Unda bu yig‘indi qiymat CaO ishtirokisiz  $\text{FeO} + \text{SiO}_2 + \text{A}_1\text{O}_3 = 87\%$  tashkil etadi.

Shixtaga qo‘shiladigan flyus sifatida quyidagi tarkibli 50% SaO, 40% SO<sub>2</sub> 9%, SiO<sub>2</sub>, 1% boshqa moddalar X miqdorda oxak olinadi.

Unda bu nisbatlik bo‘yicha quyidagi tenglamani tuzamiz.  $(\text{FeO} + \text{SiO}_2 + \text{A}_1\text{O}_3) : \text{CaO} = 87 : 8$

$$\frac{37,6 + (33,4 + X \cdot 0,09) + 6,2}{82,85 \cdot 0,008 + X \cdot 50} = 87 / 8$$

Bu tenglamadan kerakli qiymatni topamiz.  $X = 13,0 \text{ kg.}$

Unda CaO 6,50 kg, SiO<sub>2</sub> 1,2 kg, SO<sub>2</sub> 5,20 kg. boshqa moddalar 0,1 kg.

Shlak va flyusning jami  $\text{FeO} + \text{SiO}_2 + \text{CaO} + \text{A}_1\text{O}_3$  yig‘indi miqdori 85,50 kg ni tashkil etadi, Shlakning chiqishi esa 90,45 kg. ga teng bo‘ladi.

Yuqoridagi hisobotlarga asosan chiqindi shlak tarkibini aniqlaymiz:

	kg	%		kg	%
FeO .....	37,6	41,6	Cu .....	0,3	0,3
SiO <sub>2</sub> .....	34,6	38,2	S.....	0,65	0,7
CaO.....	7,2	8,0	Boshqalar.....	3,9	4,4
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub> .....	6,2	6,8			

Olingen ma'lumotlar asosida, boyitmalarni konvertir shlaki va flyus bilan eritish jarayonining material balansini tuzamiz. Biz ko'rib shiqayotgan misolimizdagidek o'xhash tarkibli boyitmani qayta ishslash natijasida shlak tarkibidagi misning miqdori 0,4% dan oshmaydi. Buni inobatga olgan holda bu qiymatni biz 0,3%, deb qabul qilamiz.

### 7.1-jadval

Flyussiz ammo konverter shlaki bilan eritish jarayonining dastlabki balansi, kg

Material balans	Jami	Shu jumladan							
		Cu	S	Fe	SiO <sub>2</sub>	CaO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	O <sub>2</sub>	Boshqalar
<b>Yuklandi:</b>									
Boyitma	100	20,0	34,3	29,2	13,8	0,7	1,0	-	1,0
Konvertir	85,4	2,6	1,2	41,0	19,6	-	5,2	13,0	2,8
Shlak									
Jami:	185,4	22,6	35,5	70,2	33,4	0,7	6,2	13,0	3,8
<b>Olindi:</b>									
Shteyn	88,75	21,8	21,4	41,0	-	-	-	4,5	-
			5						
Shlak	82,85	0,5	0,65	29,2	33,4	0,7	6,2	8,4	3,8
Gazlar	14,5	0,3	13,4	-	-	-	-	0,8	-
Jami:	186,1	22,6	35,5	70,2	33,4	0,7	6,2	13,7	3,8

Yetishmovshiliqi 0,7 kg.

## 7.2-jadval

Xomashyo boyitmasi, quyuladigan konverter shlaki va flyus qo'shimchasi bilan eritish jarayoning material balansi(quruq massa bo'yicha),kg

Material balans	Jami	Shundan								
		Cu	S	Fe	SiO <sub>2</sub>	CaO	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	O <sub>2</sub>	SO <sub>2</sub>	bosh qalar
<b>Yuklandi:</b>										
Boyitma	100	20,0	34,3	29,2	13,8	0,7	1,0	-		1,0
Oxak	13,0	-	-	-	1,2	6,50	-	-	5,20	0,1
konvertir shlaki	85,4	2,6	1,2	41,0	19,6	-	5,2	13,0		2,8
Jami:	198,4	22,6	35,5	70,2	34,6	7,20	6,2	13,0	5,20	3,9
<b>Olindi:</b>										
Shteyn	88,95	22,0	21,45	41,0	-	-	-	4,5		-
Shlak	90,45	0,3	0,65	29,2	34,6	7,20	6,2	8,4		3,9
Gazlar	19,00	0,3	13,4	-	-	-	-	0,1	5,20	-
Jami:	198,4	22,6	35,5	70,2	34,6	7,20	6,2	13,0	5,20	3,9

Quyidagi tuzilgan balansda konvertir shlakidagi kislorod boyitma tarkibidagi oltingugirtni oksidlash uchun foydalanilmaydi.

Nazorat savollari:

1. Flyus deb qanday birikma nomlanadi?
2. Shlak tarkibidagi birikmalarning miqdorini keltiring.

### **8-amaliy mashg'ulot**

#### ***Yallig' qaytaruvchi eritishda yoqilg'i sarfi va chiquvchi gazlar tarkibini hisoblash.*** **(2 soat)**

Yallig' qaytaruvchi eritishda yoqilg'i sifatida kukunsimon ko'mir, mazut yoki tabiiy gaz ishlataladi. Yoqilg'ilarni yoqish uchun boyitilgan kislorod bilan puflash natijasida ro'y berad. Issiqlik sarfini kamaytirish maqsadida, peshdan chiqayotgan gazlarning issiqligidan foydalaniladigan rekuperatorlarda pechga berilishi kerak bo'lган kislorodga boy havoni 200 - 400° C gasha qizdirib beriladi.

Kislorodga boyitilgan havo tarkibida kislorodning miqdori 24 - 30% ni tashkil etadi. Havoli puflash bilan kislorodga boyitilgan havoli puflashni taqqoslasak unda 1,15-1,25% yoqilg'i sarfini kamayishini ko'ramiz.

Shixtani eritish davrida yoqilg'i sarfi uning erish sharoitlariga ham bog'liq bo'ladi.

Turli xil tarkibli 1kg shixtani eritish uchun kerakli issiqlik miqdori, agar issiqlikdan foydalanish ko'rsatgishini 100% deb olsak unda 250 dan 600 gasha kkal issiqlik sarflanadi.

### Tabiiy gaz yonishini hisoboti

Nam xomashyo eritilganda undan ajralib chiqgan gazlarning tarkibini va miqdorini, va tabiy gaz sarfini xisobotini bajarish kerak. Tabiiy gazning tarkibi (hajmi bo'yicha) quyidagicha:  $H_2S$  - 0,17%,  $C_0_2$  - 0,7%,  $CH_4$  - 88,5%,  $C_2H_6$  - 6,17%,  $N_2$  - 4,46%. Eritish jarayonida dissotsiatsiya orqali 100 kg shixtadan 10,7 kg oltin gugurt ajralib chiqadi. Gazning yonishi issiqligini aniqlaymiz. Hisobot 100 kg nam shixtaga olib boriladi. Issiqlikni xisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:


$$Q_p^{ish} = 30,21SO + 25,81N_2 + 85,89SH_4 + 142,86S_2N_4 + 170S_2H_6 + 55,34H_2S.$$

Bizning gaz tarkibimiz uchun:

$$Q_p^{ish} = 55,34 \cdot 0,17 + 85,89 \cdot 88,5 + 170 \cdot 6,17 = 9,4 + 7601 + 1048,9 = 8659,6 \text{ kkal/m}^3.$$

Havoning miqdorini, ketayotgan gazlarning xajmi va tarkibini aniqlash uchun yoqilg'ining yonishi havoning ortiqligi koeffitsientini  $\alpha = 1,1$  teng bo'lganda bo'lib o'tishini qabul qilamiz.

Quyidagi reaksiyalar bo'yisha havoning nazariy muhtojligini aniqlaymiz:



100 m<sup>3</sup> tabiiy gaz uchun kerakli kislorod miqdori, m<sup>3</sup>:

$$CH_4 \text{ yonishi uchun } 100 \cdot 0,885 \cdot 2 = 177$$

$$C_2H_6 \text{ yonishi uchun } (100 \cdot 0,0617 \cdot 7) : 2 = 21,6$$

$$H_2S \text{ yonishi uchun } (100 \cdot 0,0017 \cdot 3) : 2 = 0,26$$

Umumiy kerakli kislorod miqdori 198,86 m<sup>3</sup> teng. Shunda azot miqdori:

$$(198,86 : 21) \cdot 79 = 748,1 \text{ m}^3.$$

100 m<sup>3</sup> gaz yonishi uchun havoning nazariy muhtojligining ko'rsatgishi quyidagicha:

$$198,86 + 748,1 = 946,96 \text{ m}^3.$$

Yoqilg'i yonganda ajralib chiqayotgan gazlarning nazariy tarkibi quyidagicha, m<sup>3</sup>:

$$SO_2 \dots 0,7 + 0,885 \cdot 100 + 0,0617 \cdot 100 \cdot 2 = 101,54$$

$$N_2O \dots 0,885 \cdot 100,0 \cdot 2 + 0,0617 \cdot 100,0 \cdot 3 + 0,0017 \cdot 100 = 195,67$$

$$SO_2 \dots 0,0017 \cdot 100,0 = 0,20$$

$$N_2 \dots 4,46 + 748,10 = 752,56$$

Dissotsiatsiya orqali ajralib chiqqan oltin gugurtning yonishi uchun kerak bo'lgan kislorod miqdori:

$$12,6 \text{ kg} = (12,6 \cdot 22,4) : 32 = 8,80 \text{ m}^3.$$

Kislorod bilan birga kelgan azot miqdori

$$8,80 \cdot 79 : 21 = 33,2 \text{ m}^3.$$

Havoning ortiqlik koeffitsientini  $\alpha = 1,1$  inobatga olgan holda kerak bo‘lgan kislород miqdori:

$$1,1 \cdot (198,86 + 8,80) = 228,4 \text{ m}^3,$$

Shunda kelgan azot miqdori:

$$228,4 \cdot 79 : 21 = 859,2 \text{ m}^3.$$

Havoning umumiy miqdori:

$$228,4 + 859,2 = 1087,6 \text{ m}^3.$$

Havoning ortiqligini inobatga olganda va shixtaning gazlarini inobatga olmagan holda tutunda gazlarning tarkibi quyidagicha:

	$\text{m}^3$	(hajmli)
$\text{CO}_2$ .....	101,54	8,62
$\text{N}_2$ .....	863,7	73,00
$\text{H}_2\text{O}$ .....	195,67	16,60
$\text{O}_2$ .....	20,74	1,76
$\text{SO}_2$ .....	0,20	0,02

Nazorat savollari:

1. Yallig‘ qaytaruvchi eritish jarayoni to‘g‘risida ma’lumot bering.
2. Yallig‘ qaytaruvchi eritish pechlarida qanday yoqilg‘ilardan foydalaniladi?
3. Tabiiy gazning tarkibini keltiring.
4. Tabiiy gazning yonishi natijasida ajralib chiqayotgan mahsulotlarni kimyoviy reaksiyalarni keltiring.

## 9-amaliy mashg‘ulot

*Nam shixtani yallig‘ qaytaruvchi eritish uchun tabiy gaz sarfini va issiqlik balansi*

*(2 soat)*

Eritish jarayoning issiqlik balansini tuzish uchun ajralib chiqgan gazlar, shteyn va shlaklarning xaroratini  $1300, 1150$  va  $1280^\circ \text{C}$  ga tengligini qabul qilamiz. Hisobotni  $100 \text{ kg}$  boyitma bo‘yicha olib boramiz. Eritish jarayonining material balansiga ko‘ra  $100 \text{ kg}$  boyitmaga  $13,0 \text{ kg}$  ohaktosh beriladi, ya’ni shixta miqdori  $113,0 \text{ kg}$  teng bo‘ladi (quruq og’irligi boyicha). Namlik darajasini  $5\%$  deb inobatga olgan holda shixta og’irligi:

$$113,0 : 0,95 = 118,9 \text{ kg teng bo‘ladi.}$$

Shixtani eritish uchun gaz sarfini  $\text{X m}^3$  deb qabul qilinadi.

Gazni yonishi uchun  $\alpha = 1,1$  teng bo‘lganda (oldingi hisobotdan),  $1 \text{ m}^3$  gaz yonishi uchun kerakli bo‘lgan havo miqdori:

$$\text{X} \cdot 1087,6 : 100 = 10,88 \text{ X m}^3.$$

Ohaktosh parchalanishi va oltin gugurtni oksidalsh natijasida ajralib chiqgan uglerodli va oltingugirtli gazlar, shixtadan chiqgan suv bug'lari quyidagi miqdorda gazlarga o'tadi:

	kg	$m^3$
CO <sub>2</sub> .....	13,4+13,4=26,8	26,8:64•22,4=9,36
SO <sub>2</sub> .....	5,2	5,2•22,4 : 44= 2,6
H <sub>2</sub> O.....	5,9	5,9•22,4: 18= 7,4

Ajralib chiqgan gazar tarkibi,  $m^3$ :

CO <sub>2</sub> .....	X•1,015+ 2,6	N <sub>2</sub> .....	X•8,637
N <sub>2</sub> O.....	X•1,960+ 7,4	O <sub>2</sub> .....	X•0,207
SO <sub>2</sub> .....	X•0,002+ 9,36		

Gaz sarfini aniqlash uchun 100 kg boyitma balansning alohida qismlarini hisobot qilish kerak.

### ***Issiqlik kelishi***

Qattiq shixtalarning fizik issiqligi. Shixtaning issiqlik sig'imi topish uchun, boyitma tarkibini ratsional tarkibini hisoblaganda aniqlangan shixtaning asosiy komponentlarining o'rtacha solishtirma issiqlik sig'imidan foydalanamiz. Komponentlarning issiqlik sig'imi quyidagicha qabul qilamiz, kkal/(kg • °C):

$$C_{\text{CuFeS}_2} = 0,1310; \quad C_{\text{FeS}_2} = 0,1284;$$

$$C_{\text{SiO}_2} = 0,2174; \quad C_{\text{CaCO}_3} = 0,2005;$$

$$C_{\text{solishtirma}}^{o'rtacha} = \underline{52 \cdot 0,1310 + 28,5 \cdot 0,1284 + 15,0 \cdot 0,2174 + 13,00 \cdot 0,2005} = 0,151 \text{ kkal/(kg} \cdot ^\circ\text{C)}.$$

$$52 + 28,5 + 15,0 + 13,00$$

Boshqa qolgan komponentlarning solishtirma issiqlik sig'imi bizga ma'lum bo'lgan bosh komponentlar qiymatlari asosida qabul qilamiz. Pechga 25°Sda shixta bilan keladigan issiqliq miqdori  $118,9 \cdot 0,151 \cdot 25 = 448,8$  kkal ni tashkil qiladi.

2. Konverter suyuq shlakining fizik issiqligi. Suyuq konverter shlakining xarorati 1 150° S ga teng. Shu haroratda shlakning entalbpiya qiymati 325 kkal/kg ga teng . Konverter shlaki bilan keladigan isiqlik miqdori:  $325 \cdot 85,4 = 27755,0$  kkal.

3. Xavoning fizik issiqligi. Gazni yoqish uchun beriladigan xavoning xarorati 30° S teng. Uning issiqlik sig'imi 0,31 kkal/(m<sup>3</sup> • °S) ga teng. Bu qiymatlarga mos ravishda havo bilan keladigan issiqlik miqdori, quyidagiga teng:

$$X10,88 \cdot 30 \cdot 0,31 = 101,2X \text{ kkal.}$$

4.Tabiyy gazni yonishi natijasida keladigan issiqlik miqdori:

$$X8659,6 = 8659,6X \text{ kkal.}$$

5.Oltingugurtning oksidlanishi orqali keladigan issiqlik miqdori:

$$13,4 \cdot 2217 = 29707,8 \text{ kkal.}$$

6.Oxaktosh va temirning shlaklanishi orqali keladigan issiqlik miqdori:  $13,4 \cdot 2217 = 29707,8$  kkal.

Chiqindi shlak tarkibida hamma  $\text{FeO} \text{ SiO}_2$  bilan quyidagi reaksiya bo‘yicha bog‘lanadi:  
 $2\text{FeO} + \text{SiO}_2 = (\text{FeO})_2\text{SiO}_2$ .

Chiqindi shlak tarkibida 37,6 kg  $\text{FeO}$  mavjud bo‘lib u bilan bog‘langan  $\text{SiO}_2$  ning miqdori:  
 $37,6 \cdot 60 : 143,7 = 15,4$  kg  $\text{SiO}_2$ .

Konverter shlaki bilan pechga 18,9 kg  $\text{SiO}_2$  kiritildi. Shunday qilib pechda temir shlaklanishi reaksiyasi bo‘lib o‘tmaydi.

1 kg  $\text{SaO}$  o‘zaro ta’sirlashganda ajraladigan issiqlik miqdori 384 kkal teng. Bunda issiqliknинг kelishi:

$$7,2 \cdot 384 = 2764,8 \text{ kkal.}$$

7 . Endotermik reaksiyalar orqali issiqliknинг sarflanishi. 1 mol erkin harakatlangan oltingugurtni dissosiatsiyalash uchun 20 kkal issiqlik sarflanadi. Unda issiqlik sarfi quyidagiga teng bo‘ladi.

$$13400 \cdot 20 : 32 = 8375 \text{ kkal}$$

$\text{SaSO}_3 \rightarrow \text{SaO} + \text{SO}_2$  - 42498 kkal reaksiya bo‘yisha oxaktoshning parchalanishi natijasida sarflanadigan issiqlik miqdori quyidagicha:

$$13,0 \cdot 424,5 = 5518,5 \text{ kkal.}$$

Umumiy issiqlik kelishi miqdori:

$$448,8 + 27755 + 29707,8 + 2764,8 - 8375 - 5518,5 + 101,2X + 8659,6X = 46782,9 + 8760,8X \text{ kkal.}$$

### *Issiqlik sarflanishi*

1.  $1180^{\circ}\text{C}$  da shteynning fizik issiqligi :

$$88,15 \cdot 0,22 \cdot 1180 = 22883,7 \text{ kkal.}$$

2.  $1280^{\circ}\text{C}$  da chiqindi shlakning fizik issiqligi:

$$90,45 \cdot 0,29 \cdot 1280 = 33575 \text{ kkal ni tashkil etadi.}$$

3.  $1300^{\circ}\text{C}$  da pechdan ajralgan gazlar orqali, kkal:

$$\text{CO}_2 \dots \dots \dots 2,6 \cdot 714,7 + 1,015 \cdot X \cdot 714,7 = 1852,2 + 725,4X$$

$$\text{H}_2\text{O} \dots \dots \dots 7,4 \cdot 555,7 + 1,96 \cdot X \cdot 555,7 = 4112,2 + 1089,2X$$

$$\text{SO}_2 \dots \dots \dots 9,36 \cdot 715,3 + 0,002 \cdot X \cdot 715,3 = 6695,2 + 14X$$

$$\text{N}_2 \dots \dots \dots 8,63 \cdot X \cdot 444,9 = 3832,6X$$

$$\text{O}_2 \dots \dots \dots 0,210 \cdot 470,5X = 98,8X$$

$$\text{Jami} \quad 12659,6 + 5757,4X \text{ kkal}$$

4. Issiq bardosh g‘ishtlar orqali sarflangan issiqlik miqdori umumiy issiqlik miqdorining 12% ni tashkil qilad:

$$0,12 (46782,9 + 8760,8X) = 5614,0 + 1051,3X \text{ kkal.}$$

Issiqlik sarfining umuiy miqdori:

$22833,7 + 33575 + 12659,6 + 5614,0 + 5757,4X + 1051, ZX = 75582,3 + 6808,7X$  kkal.

Issiqlik kelishi va sarfi bo'yisha tenglama tuziladi:

$$46782,9 + 8760,8X = 75582,3 + 6808,7X ;$$

$$28799,4 \text{ kkal} = 1952,1 \text{ X.}$$

Shunda tabiiy gaz sarfi quyidagini tashkil qiladi:

$$X = 28799,4 : 1952,1 = 14,40 \text{ m}^3.$$

Olingan natijalarni issiqlik balansi jadvaliga kiritamiz

9. 1-jadval

#### Yallig' qaytaruvchi eritish jarayonining issiqlik balansi

Issiqlik kelishi			Issiqlik sarfi		
balans	kkal	%	balans	kkal	%
Shixta	448,8	0,3	Shteyn	22 883,7	13,3
Konverter shlaki	27755	16,1	Chiqindi shlak	33575	19,5
Havo	1446,1	0,8	Ajralgan gazlar	94933,5	55,2
Kimyoviy reasiyalar	18579, 1	10,8	G'ishtlar terimi orqali yo'qotilishlar va	20616	12.0
Tabiiy gazning yonishi	123745	72,0			
Jami	171974	100	Jami	172 008	100

Issiqlik balans tuzilishi natijasida pechning f.i.k 32,8% tashkil qiladi. Asosiy issiqlik sarfining manbai ajralgan gazlar hisoblanadi. Havoni isitish va bug' hosil qilish uchun ketayotgan gazlarning issiqligini qo'llash natijasida issiqliknini qo'llanish koeffitsiyentini 60-65% ga oshadi.

Nazorat savollari:

1. Yallig' qaytaruvchi eritish jarayoni natijasida ajralib chiqayotgan mahsulotlar nima va ularning harorati.
2. Shixtani eritish uchun qanday yoqilg'idan foydalaniladi?
3. Issiqlik kelishi nima bilan amalga oshadi?
4. Issiqlik sarfalanishi qanday amalga oshadi?
5. Issiqlik balansi jadvali haqida tushuncha bering.

#### **10-amaliy mashg'ulot**

*Mis shteynlarini konverterlash*

Shteynni konverterda puflash

*(4 soat)*

Gorizontal konverterda konverterlashga kelayotgan shteynning tarkibida vazifa bo'yicha quyidagi moddalar mavjud: Cu - 25,3 %, S - 24,9%, Fe - 45,2%, O<sub>2</sub> - 4,6%.

Hisobotlar natijasida flyus sarfi, ajralib chiqayotgan gazlarning miqdori va tarkibi, puflash davomiyligi va konverterning bir sutkadagi qayta ishslash unumдорлиги aniqlanadi.

Hisobotlarni olib borish uchun ishlab chiqarish amaliyotidan quyidagi ko'rsatgishlarni qabul qilamiz:

- a) havoning sarfi -  $550 \text{ m}^3/\text{min}$ ;
- b) konverterni havo bilan puflash koeffitsienti  $K_i = 72\%$ ;
- v) eritish (konverterlashni) quyidagi tarkibdagi shlakgacha  $\text{Su} - 3\%$ ,  $\text{S} - 0,8\%$ ,  $\text{Fe} - 48\%$ ,  $\text{SiO}_2 - 23\%$ ,  $\text{Al}_2\text{O}_3 - 6,1\%$ ,  $\text{O}_2 - 15,2\%$ , qolganlar -  $3,9\%$  olib boriladi;
- g) bir eritishda olinadigan misning massasi  $60 \text{ t}$ ;
- d) misni gaz bilan yo'qolishi  $1\%$ ;
- e) homaki misni tarkibi  $\text{Su} - 99,2\%$ ,  $\text{S} - 0,3\%$ ,  $\text{O}_2 - 0,2\%$ , qolganlar -  $0,3\%$ .

$60 \text{ t}$  mis olish uchun, shteyning miqdorini aniqlashda, konverter shlakining chiqish darajasini va undagi mis miqdorini aniqlaymiz.

Shteyndagi temir shlakga to'liq o'tganligini qabul qilamiz. Unda  $1 \text{ t}$  shteyndan shlakga o'tadigan misning miqdori:

$$0,452 : 0,48 \cdot 0,03 = 0,028 \text{ t.}$$

Misni gaz bilan yo'qolishini hisobga olganda, misni homaki misga ajratib olish darajasi teng bo'ladi:

$$100 - 1 - (0,028 : 0,253) \cdot 100 = 87,94\%.$$




$60 \text{ t}$  mis olish uchun zarur bo'lgan shteyn miqdori::

$$(60 : 0,253) : 0,8794 = 269,7 \text{ t.}$$

Homaki misning miqdori:

$$60 : 0,992 = 60,5 \text{ t. teng bo'ladi}$$

Qo'yidagi reaksiyalarni borishiga zarur bo'ladigan kislорodning miqdorini aniqlaymiz:



Shteynning tarkibida, t:

$$\text{Temir} \dots \dots \dots 269,7 \cdot 0,452 = 121,9$$

$$\text{Oltingugurt} \dots \dots \dots 269,7 \cdot 0,249 = 67,1$$

$$\text{Kislорod} \dots \dots \dots 269,7 \cdot 0,046 = 12,4$$

Konverterlashning I va II bosqichlarning gaz tarkibi har xil bo'lganligi sababli, gaz tarkibi va uning xajmini hisoboti bosqichlar bo'yicha alohida olib boramiz.

Konverterlashning I bosqishi o'z tarkibida  $79,9\%$  mis saqlovchi oq matt olinishi bilan yakunlanadi deb qabul qilamiz.

Konverterlash jarayoni I bosqishi gazlarining hajmini va tarkibini hisoblaymiz.

I bosqishda ajratib tashlanadigan oltingugurt miqdori, t:

$$\text{Konverter shlaki bilan} \dots \dots \dots 121,9 \cdot 0,008 : 0,48 = 2,0$$

$$\text{Yarim oltingugurtli mis bilan} \dots \dots \dots 60 : 0,992 \cdot 32 : 127 = 15,3$$

$$\text{Gazalar bilan} \dots \dots \dots 67,1 - 2,0 - 15,3 = 49,8$$

Konverterlashning birinchi bosqichida  $\text{SO}_2$  gacha oksidlangan oltingugurtning miqdori  $\text{SO}_3$  gasha oksidlangan oltingugurt miqdoriga nisbatligini  $6:1$  deb qabul qilamiz.  $\text{SO}_2$  gacha oksidlangan oltingugurt miqdori:

$$49,8 \cdot 6 : 7 = 42,7 \text{ t}$$

$\text{SO}_3$  gacha oksidlangan oltingugurt miqdori

$$49,8 \cdot 1 : 7 = 7,1 \text{ t.}$$

Oltingugurtni  $\text{SO}_2$  gasha oksidlanishi uchun zarur bo‘ladigan kislorod miqdori 42,7 t,  
 $\text{SO}_3$  gasha oksidlanish uchun zarur bo‘lgan kislorod miqdori:

$$7,1 \cdot 48 : 32 = 10,6 \text{ t.}$$

Konverter shlakida 23%  $\text{SiO}_2$  bo‘lganida, unda 21,0%  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  mavjudligini qabul qilamiz.

$\text{Fe}_3\text{O}_4$  gasha oksidlanadigan temir miqdori:

$$121,9 : 0,48 \cdot 0,210 : 231,55 \cdot 167,55 = 38,6 \text{ t.}$$

$\text{FeO}$  gasha esa oksidlanadigan temir miqdori:

$$121,9 - 38,6 = 83,3 \text{ t.}$$

Temirni oksidlanishi uchun zarur bo‘ladigan kislorod miqdori, t:

$$\text{Fe}_3\text{O}_4 \text{ gacha} \dots \dots \dots 38,6 \cdot 64 : 167,55 = 14,7$$

$$\text{FeO} \text{ gacha} \dots \dots \dots 83,3 \cdot 16 : 55,85 = 23,9$$

Kislorodning umumiy zarur bo‘lgan miqdori:

$$42,7 + 10,6 + 14,7 + 23,9 = 91,9 \text{ t.}$$

Shteyndagi kislorodni hisobga olganda, havo bilan kiritiladigan kislorodning miqdori:

$$91,9 - 12,4 = 79,5 \text{ t.}$$

Konverterlash vannasida kislorodni to‘liq ishlatish koeffitsienti 95 % teng deb qabul qilsak, bu holda, kiritiladigan kislorodning miqdori:

$$79,5 : 0,95 = 83,7 \text{ t.}$$

Kislorod bilan birga keladigan azotning miqdori:

$$83,7 \cdot 77 : 23 = 280,2 \text{ t.}$$

Konvertrlash jarayonining birinshi bosqichiga havoning zarur bo‘lgan umumiy miqdori:

$$83,7 + 280,2 = 363,9 \text{ t.}$$

Konverterlash jarayoni birinchi bosqichi gazlarining hajmi va tarkibi quyidagisha:

	kg	$\text{m}^3$	(xajmlari %)
$\text{S0}_2$	85400	29890	11,4
$\text{S0}_3$	17700	4956	1,9
$\text{N}_2$	280 200	224 160	85,6
$\text{O}_2$	4200	2940	1,1

Umuman birinchi bosqichda hosil bo‘ladigan konverter gazlarining miqdori 387,5 t, yoki  $261946 \text{ m}^3$ .

Konverterlashning birinshi bosqichida havo bilan puflash davomiyligini aniqlaymiz:

$$363900 : 1,29 \cdot 550 = 513 \text{ min} = 8,5 \text{ s},$$

Konverterni havo bilan puflash koeffitsiyenti hisobga olganda

$$8,5 : 0,72 = 12 \text{ s.}$$

Konverterlash jarayoni II bosqishi gazlarining hajmi va tarkibini aniqlaymiza.

Xomaki mis bilan ajratib tashlanadigan oltingugurt miqdori:

$$60,5 \cdot 0,003 = 0,2 \text{ t.}$$

Gazlar bilan ajratib tashlanadigan oltingugurt miqdori:

$$15,3 - 0,2 = 15,1 \text{ t.}$$

Oltingugurt gazlarda  $\text{SO}_2$  va  $\text{SO}_3$  larga oksidlanish nisbatligi 5 : 1.  $\text{SO}_2$  gacha oksidlangan oltingugurt miqdori:  $15,1 \cdot 5 : 6 = 12,6 \text{ t}$

$\text{SO}_3$  gacha oksidlangan oltingugurt miqdori:  $15,1 - 12,6 = 2,5$  t.

Oltингugurtни  $\text{SO}_2$  gacha oksidlanishi uchun zarur bo‘ladigan kislorod miqdori 12,6 t kisloroda,  $\text{SO}_3$  gacha oksidlanishi uchun zarur kislorod miqdori:

$$2,5 \odot 48 : 32 = 3,75 \text{ t.}$$

Xomaki mis ajratib tashlangan kislorod miqdori

$$60,5 \odot 0,002 = 0,1 \text{ t.}$$

Kislorodning umumiy zarur bo‘lgan miqdori:

$$12,6 + 3,75 + 0,1 = 16,45 \text{ t.}$$

Kislorodni ishlatish koeffitsiyenti 0,95 bo‘lganda konverterlashning ikkinchi bosqichida kislorodning sarfi:

$$16,45 : 0,95 = 17,3 \text{ t.}$$

Kislorod bilan kirgan azotning miqdori%

$$17,3 : 23 \odot 77 = 57,8 \text{ t,}$$

Havoning sarfi:

$$17,3 + 57,8 = 75,1 \text{ t.}$$

Konverterlashning ikkinchi bosqichi gazlarining hajmi va tarkibi quyidagicha:

	kg	$\text{m}^3$	%(hajm)
$\text{S0}_2$ .....	25 200	8 820	15,3
$\text{S0}_3$ .....	6 250	1 750	3,0
$\text{N}_2$ .....	57 800	46 400	80,6
$\text{O}_2$ .....	850	595	1,1
<hr/>			
Jami.....	90 100	57 565	100

Konverterlashning ikkinchi bosqichini puflash davomiyliga:

$$75100 : 1,29 : 550 = 111 \text{ min} = 1,9 \text{ s.}$$

Kvars flyusining miqdorini hisoblash uchun, quyidagi tarkibdagi kvars flyusini qabul qilamiz:  $\text{SiO}_2$  - 70%,  $\text{Al}_2\text{O}_3$  - 18%, qolganlar - 12%.

Temirni shlaklarda konverter shlakinining chiqishi quyidagicha bo‘ladi:

$$121,9 : 0,48 = 254,0 \text{ t.}$$

Undagi kvarts miqdori:

$$254,0 \odot 0,23 = 58,4 \text{ t.}$$

Bitta eritishga sarf bo‘ladigan kvars qumining miqdori :

$$58,4 : 0,70 = 84,0 \text{ t.}$$

Olib borilgan hisobotlar natijalari bo‘yisha konverterlashning material balansini tuzamiz:

Homaki mis olish uchun shteynni konverterda puflash jarayonining material balansi, t

Balan materiallari	Jami	Shu jumladan							
		Cu	S	Fe	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	O <sub>2</sub>	N <sub>2</sub>	qolganlar
<b>Kiradi:</b>									
Shteyn	269,7	68,3	67,1	121,9	-	-	12,4	-	-
Qum	84,0	-	-	-	58,4	15,5	-	-	10,1
Havo	439,0	-	-	-	-	-	101,0	338,0	-
Jami:	792,7	68,3	67,1	121,9	58,4	15,1	113,4	338,0	10,1
<b>Olindi:</b>									
Mis	60,5	60,0	0,2	-	-	-	0,2	-	0,1
Shlak	254,0	7,6	2,0	121,9	58,4	15,5	38,6	-	10,0
Gazlar	478,2	0,7	64,9	-	-	-	74,6	338,0	-
Jami:	792,7	68,3	67,1	121,9	58,4	15,1	113,4	338,0	10,1

Olib borilgan hisobotlar bo‘yicha konverterni puflash davomiyligi:

$$8,5 + 1,9 = 10,4 \text{ s.}$$

Konverterni puflashda ishlatalish koeffitsienti hisobga olganda 60,5 t massali xomaki mis olish uchun, puflash davomiyligi quyidagi ko‘rsatgichga teng bo‘ladi:

$$10,4 : 0,72 = 14,44 \text{ s.}$$

Demak bir sutkada konverterda:

$$24 : 14,44 = 1,66 \text{ eritish olib boriladi.}$$

Unda bir sutkada bitta konverterning ishlab chiqarish unumdarligi homaki mis bo‘yicha:

$$60,5 \odot 1,66 = 100,4 \text{ t tashkil etadi.}$$

Nazorat savollari:

1. Mis shteynlarini konverterlash jarayoni maqsadi.
2. Shteyn tarkibini keltiring.
3. Nimaga kislorod bilan purkash jarayoni ikkita bosqichdan iborat?
4. Konverterga yuklanadigan asosiy homashyo.
5. Konverterdan chiqayotgan asosiy homashyo nima?
6. Konverterda kislorod bilan purkash jarayoni davomiyligi nechiga teng?

## 11-amaliy mashg‘ulot

*Konverterlash jarayonining issiqlik balansi.*

Konverterlashning I bosqichining issiqlik balansi

(2 soat)

Hisoblangan material balansga va amaliyot ko‘rsatgishlariga asoslanib issiqlik balansini hisoblaymiz.

Materiallar	t, °C	C <sub>p</sub> , kkal/(kg•°S)
Shteyn	1100	0,24
Havo	50	0,24
Konverter shlaki	1180	0,29
Oq shteyn	1200	0,18
Homaki mis	1220	0,108

### *Issiqlikning kelishi*

1. Issiq shteynning issiqligi

$$269700 \odot 1100 \odot 0,24 = 71,2 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$


2. Havoning issiqligi

$$363900 \odot 50 \odot 0,24 = 4,4 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

3. Temirni oksidlanishi reaksiyalarining issiqligi (hisobotni temir bo'yicha olib boramiz). Konverterlash jarayonida shteyndagi temir Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub> va FeO larga oksidlanadi. Shteyn bilan kislorod Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub> holatida keladi deb qabul qilamiz. Shteynda 12,4 t kislorod va  $12,4 \cdot 167,55 : 64 = 32,5$  t kislorod bilan bog'langan temir bor. Konverter shlakida Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub> gacha oksidlangan 38,6 t temir mavjud. Umumiy hisobda konverterlashning birinchi bosqichida Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub> oksidlangan temirning miqdori:

$$38,6 - 32,5 = 6,1 \text{ t}$$

Oksidlanish quyidagi reaksiya bo'yisha boradi:



Ajralib chiqadigan issiqlikning miqdori:

$$6100 \odot 267000 : 167,55 = 9,7 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$


Temirning qolgan miqdori FeO gacha quyidagi reaksiya bo'yicha oksidlanadi



Ajralib chiqadigan issiqlikning miqdori:


$$127400 : 111,7 \odot 83300 = 95,3 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

4. Oltingugurtni oksidlanish reaksiyasining issiqligi



Ajralib chiqadigan issiqlikning miqdori:


$$70960 : 32 \odot 42700 = 94,7 \odot 10^6 \text{ kkal;}$$



Ajralib chiqadigan issiqlikning miqdori:

$$188900 : 64 \odot 7100 = 21 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

5. Shlak hosil bo'lish reaksiyalarining issiqligi



Ajralib chiqadigan issiqlikning miqdori:

$$11900 : 111,7 \odot 83300 = 8,9 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

6. Kvarts qumining fizik issiqligi:

$$84000 \cdot 0,29 \cdot 25 = 0,6 \cdot 10^6 \text{ kkal.}$$

Issiqlikning umumiy kelishi:

$$(59,3 + 4,4 + 9,7 + 95,3 + 94,7 + 21 + 8,9 + 0,6) \cdot 10^6 = 293,90 \cdot 10^6 \text{ kkal}$$

### *Issiqlikning sarfi*

1. Oq mattning issiqligi

$$60800 \cdot 1200 \cdot 0,18 = 13,1 \cdot 10^6 \text{ kkal}$$

2. Shlakning issiqligi

$$254000 \cdot 1180 \cdot 0,29 = 86,9 \cdot 10^6 \text{ kkal.}$$

3.  $1150^{\circ}\text{C}$  da gazlarning issiqligi

$\text{SO}_2$	$29890 \cdot 624,7 \text{ kkal/m}^3 = 18,7 \cdot 10^6$
$\text{SO}_3$	$4956 \cdot 1018,6 \text{ kkal/m}^3 = 5,0 \cdot 10^6$
$\text{N}_2$	$224160 \cdot 389,55 \text{ kkal/m}^3 = 87,3 \cdot 10^6$
$\text{O}_2$	$2940 \cdot 411,1 \text{ kkal/m}^3 = 1,2 \cdot 10^6$

Jami  $112,2 \cdot 10^6 \text{ kkal.}$

4. Endotermik reaksiyalarning issiqligi.

Quyidagi reaksiya bo'yicha sarf bo'ladigan issiqlikning qiymati:



$$22720 : 55,85 = 83300 = 34 \cdot 10^6 \text{ kkal.}$$

5. Konverter yuzasidan yo'qoladigan issiqlik.

Konverterning yuzasi diametri  $3,96 \text{ m}$  va uzunligi  $9,15 \text{ m}$  bo'lган silindr kabi aniqlanadi,

faqat yuzaning qiymatidan konverter bo'g'ozining yuzasi

$(2 \cdot 3) \text{ m}^2$  ayirib tashlanadi :

$$F_K = 2 \cdot (3,14 \cdot 3,96^2) : 4 + 3,14 \cdot 3,96 \cdot 9,15 - 2 \cdot 3 = 120,1 \text{ m}^2.$$

Konverter futerovkasining o'rtacha qalinligi  $s = 0,5 \text{ m}$ .

Konverterning futerovkasi issiqlikga chidamli xromitmagnezit g'ishtidan tayyorланади. Uning  $1200^{\circ}\text{C}$  da issiqlik o'tkazuvchanligi

$\lambda = 2,4 \text{ kkal/(m} \cdot \text{soat} \cdot {}^{\circ}\text{C)}$  teng.

Unda

$$s : \lambda = 0,5 : 2,4 = 0,21.$$

Kladka bilan issiqlikni yo'qolish grafikidan [ 1 ] tashqi devorning harorati  $240^{\circ}\text{C}$  ga teng deb aniqlaymiz, issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti esa  $1,3 \text{ kkal/m}^2$  s tengligini aniqlaymiz.

Bunday qilib kladka orqali issiqlikning yo'qolishi quyidagicha bo'ladi:

$$120,1 \cdot 1,3 \cdot 3600 \cdot 8,5 : 0,72 = 6,6 \cdot 10^6 \text{ kkal.}$$

Konverter bo'g'ozidan nurlanish hisobiga issiqlikning yo'qolish qiymatini aniqlaymiz. D. A. Diomidovskiy va L. M. Shalygin ko'rsatgichlari bo'yisha, diafragmalash koeffitsienti  $\varphi = 0,87$  ( $6 \text{ m}^2$  li bo'g'oz uchun) va konverter hajmidagi harorat  $1300^{\circ}\text{C}$

bo‘lganda issiqlikning yo‘qolishi  $250000 \text{ kkal}/(\text{m}^2\cdot\text{s})$  deb topamiz]. Bu holatda issiqlikning bo‘g‘zi orqali yo‘qolishi quyidagi ko‘rsatgishga teng bo‘ladi:

$$250000 \cdot 6 \cdot 8,5 : 0,72 = 17,7 \cdot 10^6 \text{ kkal.}$$

Issiqlikning umumiy sarfi quyidagi miqdorga teng bo‘ladi:

$$13,1 \cdot 10^6 + 86,9 \cdot 10^6 + 112,2 \cdot 10^6 + 34 \cdot 10^6 + 6,6 \cdot 10^6 + 17,7 \cdot 10^6 = 270,5 \cdot 10^6 \text{ kkal.}$$

Konverterlash jarayoni birinchi bosqishining issiqlik balansini tuzamiz (Jadval 11.1).

11.1-jadval

Konverterla jarayoni birinchi bosqichining issiqlik balansi

Issiqlikning kelishi			Issiqlikning sarfi		
Balans ko‘rsatgichisi	kkal $\cdot 10^6$	%	Balans ko‘rsatgichisi	kkal $\cdot 10^6$	%
Shteyn	71,2	23,3	Oq matt	13,1	4,2
Havo	4,4	1,4	Shlak	86,9	28,4
Temirni oksidlanishi	105,0	34,3	Gazlar	112,2	38,2
Oltingugurtni oksidlanishi	115,7	37,8	Endotermik reaksiyalar	34,0	11,1
Shlak hosil bo‘lishi	8,9	3,0	Kladka orqali yo‘qolish	6,6	2,2
Qum	0,6	0,2	Bo‘g‘oz orqali yo‘qolish	17,7	5,8
Jami	305,8	100,0	So‘vuq qo‘shimchalarni eritilishi	35,3	11,5
			Jami	305,8	100,0

Nazorat savollari:

1. Konverterlash jarayoni issiqlik balansi hisoblashdan maqsad?
2. Havo, shteyn shlak haroratlari miqdori.
3. Konvertega issiqlik nima bilan keladi?
4. Konverte da issiqlik nima bilan sarflanadi?
5. Oksidlanish natijasida ajralib chiqgan gazlarninig miqdori.

## 12-amaliy mashg‘ulot *II bosqichning issiqlik balansi*

*(2 soat)*

*Issiqlikning kelishi*

1. Oq shtenning issiqligi  $13,1 \cdot 10^6 \text{ kkal}$  ( I bosqich bo‘yicha).
2. Havoning issiqligi  $75100 \cdot 50 \cdot 0,24 = 0,9 \cdot 10^6 \text{ kkal.}$
3. Oltingugurtning oksidlanishi:



$$12600 \odot 51960 : 32 = 20,46 \odot 10^6 \text{ kkal};$$



$$2500 \odot 150900 : 64 = 5,9 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

#### 4. Misning oksidlanishi

$$\begin{aligned} 4\text{Cu} + \text{O}_2 &= 2\text{CuO} + 81200; \\ 1600 \odot 81200 : 254 &= 0,5 \odot 10^6 \text{ kkal.} \end{aligned}$$

Issiqlikning umumiy kelishi:

$$(13,1 + 0,9 + 20,46 + 5,9 + 0,5) \odot 10^6 = 40,86 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

*Issiqlik sarfi*

#### 1. Homaki misning issiqligi

$$1220 \odot 60 500 \odot 0,108 = 8,0 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

#### 2. 1150° S da gazlarning issiqligi, kkal:

$$\text{SO}_2 \quad 8820 \odot 624,7 \text{ kkal/m}^3 = 5,5 \odot 10^6$$

$$\text{SO}_3 \quad 1 750 \odot 1018,6 \text{ kkal/m}^3 = 1,8 \odot 10^6$$

$$\text{N}_2 \quad 46400 \odot 389,55 \text{ kkal/m}^3 = 18,1 \odot 10^6$$

$$\underline{\text{O}_2} \quad \underline{595 \odot 411,1 \text{ kkal/m}^3} = 0,2 \odot 10^6$$

$$\text{Jami} \quad 25,6 \odot 10^6 \text{ kkal}$$

#### 3. Issiqlikning kladka orqali yo‘qolishi:

$$120,1 \odot 1,3 \odot 3600 \odot 1,9 = 1,1 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

#### 4. Issiqlikning bo‘g‘zi orqali yo‘qolishi:

$$250000 \odot 6 \odot 1,9 = 2,8 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

Issiqlikning umumiy sarfi:

$$(8 + 25,6 + 1,1 + 2,8) \odot 10^6 = 37,5 \odot 10^6 \text{ kkal.}$$

Hisobot natijalarini jadvalga kiritamiz 12.1 jadval

12.1-jadval

Konverterlash jarayoni II bosqichining issiqlik balansi

Issiqlikning kelishi			Issiqlikning sarfi		
Balans ko‘rsatgishi	kka $\odot 10^6$	%	Balans ko‘rsatgichi	kkal $\odot 10^6$	%
Oq shteyn	13,1	26,1	Homaki mis	8,0	16,0
Havo	0,9	2,4	Ajralib chiqayotgan gazlar	25,6	51,1
Oksidlanish reaktsiyalari	28,86	71,5	Kladka orqali yo‘qolishlar	1,1	2,2
			Bo‘g‘izi orqali yo‘qolishlar	2,8	5,6
			So‘vuq qo‘sishchalarini eritish uchun issiqlik	3,36	6,3
Jami	40,86	100	Jami	40,86	100

Nazorat savollari:

1. Issiqlik balansini II bosqichining hisoblashdan maqsadi.
2. II bosqichida issiqlik kelishi nima bilan amalga oshadi?
3. II bosqichida issiqlik sarflanishi nima bilan amalga oshadi?
4. II bosqichida issiqlik balansi jadvalini tuzing.

### **13-amaliy mashg‘ulot**

#### **Xomaki misni olovli rafinirlash jarayonining issiqlik balansini xisoblash**

##### Material balansni hisoblash

##### **(2 soat)**

200 tonna og‘irlikli xomaki misni olovli tozalash jarayonining material balansini tuzish kerak bo‘ladi. Konverterdan chiqayotgan xomaki mis suyuq xolatda anod pechiga qo‘yiladi. Xomaki misda misning miqdori 99,2% tashkil etadi. Amaliyotda aniqlangan ma’lumotlarga asosan quyidagi ko‘rsatgichlarni qabul qilamiz. Bu jarayonga suyuq xomaki misdan tashqari, xomaki misning massasiga nisbatan 18% elektroliz sexida hosil bo‘lgan tarkibida 9,6 % mis mavjud skraplar qo‘shiladi. Shular bilan birgalikda 0,5 % brak anodlarda eski qoliplarni anodli eritish pechiga yuklanadi. Shlakning chiqishi 1,5%. gazlar bilan yo‘qoladigan mis miqdori 0,1 % Su. Olingan 3t metalldan qoliplar tayyorlanadi. Olovli tozalash jarayonida hosil bo‘ladigan shlak tarkibida 45% Cu bo‘ladi. anodalarda esa 99,6% Su, 0,5% ni tashkil etadi. Yaroqli anod tarkibidagi misni miqdorini aniqlaymiz:

$$200 \cdot 0,996 + 200 \cdot 0,005 \cdot 0,996 + 3 \cdot 0,996 = 203,184 \text{ t.}$$

$$\text{Olovli eritishga keladigan massa } 203,184 = X - 0,015X - 0,001X = 206,49 \text{ t.}$$

Bunga asosan eritishga kelayotgan xomaki mis massasini  $X_1$  va anod skraplarining massasini quyidagi tenglama orqali topamiz.

$$206,49 = 0,992 X_1 + 0,18 \cdot 0,996 X_1 + 0,996.$$

Bu erda xomaki mis massasi  $X_1 = 175,44$  t, Anod skrapining massasi esa  $174,7 \cdot 0,18 = 31,6$  t. Eritish natijasida chiqayotgan anod shlakining miqdori:

$$206,49 \cdot 0,015 : 0,45 = 6,9 \text{ t.}$$

Xisoblashlardan olingan qiymatlarni pastdagi 5.1. jadvalga kiritamiz.

#### **13.1- jadval**

##### **Xomaki mislarni olovli tozalash jarayonining material balansi**

Balans tuzish	Jami	Ulardagi mis	Balans tuzish	Jami	Ulardagi mis
Yuklandi:			Olindi:		
Xomaki mis	175,4	174,044	Anod	200	199,2

Anod skrapi	31,6	31,45	Yaroqsiz anod va skrap	1	0,996
Yaroqsiz anod va skrap	1	0,996	Qolip	3	2,989
			Shlak	6,9	3,105
			Gazlar bilan yo‘qolishi	—	0,2

Nazorat savollari:

1. Xomaki misni olovli tozalash jarayonining maqsadi.
2. Xomaki mis tarkibida misning miqdori nechiga teng?
3. Xomaki misni olovli tozalash jarayoni qaysi dastgohda bo‘lib o‘tadi?
4. Xomaki misni olovli tozalash jarayonining mahsuloti.

## 14-amaliy mashg‘ulot

### *Yonilg‘i yonishini va chiquvchi gazlar tarkibini xisoblash (2 soat)*

Xomaki mislarni olovli tozalash jarayonining issiqlik balansini hisoblashda, bu jarayon turli xil xarorat rejimlarida olib borilishini inobatga olish kerak. Xomaki misni tashkil qiladigan moddalarning oksidlanishi natijasida issiqlik sarfi kamayadi. Misni tiklash paytida esa aksincha xol kuzatiladi. Tayyor anod mislarini quyish uchun ham metallni haroratini o‘zgartirmaydigan, ya’ni minimal issiqlik miqdorining sarflanishi oqibatida olib boriladi. Lekin qattiq shixtani eritish uchun issiqlik sarfi yuqori bo’ladi.

Yoqilg‘ining minimal va maksimal miqdori sarflanganda eritish jarayonining issiqlik balansini xisoblaymiz. Pech issiqlik balansini hisoblash uchun quyidagi miqdorlarni qabul qilamiz.


Eritma og’irligi 200 t. Pechga yuklanadi: 175,4 t suyuq homaki mis harorati 1150°C; 31,6 t anod skrapi xarorati 25° S; 1 t anod braki harorati 25° S. Pechda mis harorati 1200° S teng. Mis eritilishi issiqligi 43 kkal/kg; issiqlik sig’imi 20 - 1083° S bo’lganda 0,094 kkal/kg teng bo’ladi, suyuq misning issiqlik sig’imi esa 0,1318 kkal/kg teng.

Pechdan chiqayotgan gazlar harorati 1250° S. Yoqilg‘i sifatida quyidagi tarkibli mazut qo’llaniladi, %: 0,3Aish; 1,9Sish; 83,3 Sish; 11,5 Hish; 0,5 Oish; 0,5 Nish; Qish = 9370 kkal/s.

Eritish davri 15 soat, shu jumladan skrap eritilishi 2 soat, suyuq mis yuklanishi 4 soat, shlak oksidlanishi va chiqishi 2 soat, tiklanish 2soat, mis quyilishi 5 soat.

## Mazut yonishi

Mazut yonishi reaksiyalari quyidagicha:



$S + O_2 = SO_2; \quad 2H_2 + O_2 = 2H_2O; \quad S + O_2 = SO_2$  100 kg mazut yonishi uchun kislorodning nazariy sarfini aniqlaymiz, kg:

$$83,3 - 32 : 12 = 222,1 \quad 11,5 - 32 : 4 = 92 \quad 1,9 - 32 : 32 = 1,9$$

Hammasi ...316

Kislorod bilan azot kiritilishi  $316 - 77 : 23 = 1058$  kg, xavo sarfi esa  $316 + 1058 = 1374$  kg.

Mazut yonish natijasida ajralib chiqqan gazlar tarkibi va xajmi:

	kg	$m^3$	% (xajmli)
$CO_2$ . . . .	$83,3 - 44 : 12 = 305,4$	155,3	13,7
$2H_2O$ . . . .	$11,5 - 36 : 4 = 103,5$	128,8	11,4
$SO_2$ . . . .	$1,9 - 64 : 32 = 3,8$	1,3	0,1
$N_2$	1058	846,4	74,8
Jami :	1470,7		

Zavod sharoitida mazut yonishi a= 1,15 teng bo'lib o'tadi. Shunda havo sarfi : 1374  $1,15 = 1580$  kg, unda kislorod miqdori  $1580 \cdot 0,23 = 363,4$  kg, azot miqdori  $1580 \cdot 0,77 = 1216,6$  kg. Gaz tarkibi:

	$m^3$	% (xajmli)
$CO_2$	155,3	11,9
$H_2O$	$1288 + 1580 : 1,293 - 5 - 2,24 : 18 = 7,6$ $+ 128,8 = 136,4$	10,6
$SO_2$	1,3	0,1
$N_2$	973,3	74,8
$O_2$	33,8	2,6
jami	1300,1	100,0

Namlikni aniqlashda, mazut yonishi uchun 1 nf xavo tarkibida 5 g namlikni qabul qilinadi. Mazut issiqligini aniqlanadi:

$$Q/H = 6747,3 + 2829 + 10,4 - 12 = 9570,7 \text{ kkal/kg.}$$

Nazorat savollari:

- 1.Xomaki misni olovli tozalash jarayoni uchun qanday yoqilg'idan foydalilanadi?
- 2.Yoqilg'i yonish reaksiyalarini keltiring.
- 3.Yoqilg'i yonish natijasida ajralib chiqgan gazlar tarkibi.

**15-amaliy mashg‘ulot**  
**Xomaki misni olovli rafinirlash issiqlik balansi**  
**(2 soat)**

Xomaki misni olovli rafinirlash issiqlik balansini aniqlash uchun pechda qattiq qoldiqlar eritilishi uchun yoqilg‘i sarfini va issiqlik kelishi va sarflanishi bo‘yicha mis quyilishini hisoblaymiz.

*Issiqlik sarfi*

1. Qattiq misni isitish uchun issiqlik sarfi ( $31,6 + 1,0 = 32,6 \text{ t} = 32\ 600 \text{ kg}$ ) eritilishi haroratigacha  $32\ 600 \cdot 0,094 \cdot (1083 - 24) = 3257457 \text{ kkal teng}$ , yoki  $3257457 : 2 = 1\ 628\ 729 \text{ kkal/s.}$
2. Mis eritish uchun kerak bo‘lgan issiqlik  
 $32600 \cdot 43,0 = 1\ 401\ 800 \text{ kkal}$ , ili  $1\ 401\ 800 : 2 = 700\ 900 \text{ kkal/s.}$
3. Misni  $1200^\circ \text{S}$  qizdirish uchun issiqlik miqdori  
 $32\ 600 \cdot 0,1318(1200 - 1083) = 502\ 712 \text{ kkal}$ , yoki  $502\ 712 : 2 = 251\ 356 \text{ kkal/s.}$

Qattiq misni qizdirish va eritish uchun, suyuq misni qizdirish uchun kerak bo‘lgan issiqlikning umumiy miqdori.

$$1628729 + 700900 + 251356 = 2580985 \text{ kkal/s.}$$

Bu sarflanish yoqilg‘i sarfi bilan tenglashtirilganda maksimal bo‘ladi.

4. Suyuq misni  $1150-1200^\circ \text{C}$  qizdirish uchun  $175400 \cdot 0,1318(1200 - 1150) = 1\ 155\ 886 \text{ kkal}$ , yoki  $1155\ 886 : 4 = 288972 \text{ kkal/s.}$

Metallni qizdirish va eritish uchun kerak bo‘lgan umumiy issiqlik miqdori:

$$1628729 + 700900 + 251356 + 288972 = 2\ 869\ 957 \text{ kkal/s.}$$

5.  $1250^\circ \text{C}$  ajralib shiqadigan gazlar bilan va  $X \text{ kg/s}$  yoqilg‘i sarfli bilan issiqlik sarflanishi:

$\text{CO}_2$	$1,55X \cdot 683,7 = 1059,7X$
$\text{H}_2\text{O}$	$1,36X \cdot 530,85 = 721,9X$
$\text{SO}_2$	$0,013X \cdot 684,65 = 8,9X$
$\text{N}_2$	$9,73X \cdot 426,45 = 4149,4X$
$\text{O}_2$	$0,34X \cdot 450,5 = 153,2X$
Jami . . .	$6093,1 X \text{ kkal/kg}$

6. Pechdagi g‘isht terimi orqali issiqlik yo‘qotilishi. Egiladigan anod pechining o‘lshamlari  $9,15 \cdot 3,96 \text{ m}$  teng. Xrom-magnezitli g‘isht terimi qalinligi  $0,46 \text{ m}$  teng. Mis quyilishi uchun bo‘g‘zi maydoni

$$1,5 \cdot 2 = 3 \text{ m}^2$$

D. A. Diomidovskiy ma‘lumotlariga asosan pech og‘zi orqali issiqlik yo‘qolishi xisoblashda diafragma koeffitsiyentini qabul qilamiz bu qiymat  $\varphi = 0,87$  ga teng.

$$4,96 \cdot 0,87 \cdot 1,5 \cdot 2 \left( \frac{1473}{100} \right)^4 = 609443 \text{ ккал/ч}$$

Umumiy issiqlik sarfi:

$$2580985 + 6093,1 X + 561600 + 609443 = 3\ 752028 + 6093,1 X.$$

### *Issiqlik kelishi*

1. Yoqilg'i bilan  $9570,7X$  kkal.
2. Xavo bilan  $15,8X0,25 - 0,3 = 1,2X$  kkal.

Umumiy issiqlik kelishi  $9571,9X$  kkal.

Maksimal yoqilg'i sarfi jarayonining issiqlik balansning issiqlik kelishi va sarflanishi bo'yicha tenglama tuzamiz :  $3752028 + 6\ 093,1 X = 9\ 571,9X$ .

Qattiq qoldiqlarni eritish uchun yoqilg'i sarfi quyidagiga teng  $X = 3752028 : (9\ 571,9 - 6\ 093,1) = 1080$  kg/s.

Mis quyilish natijasida yoqilg'i sarfini aniqlaymiz. Issiqlik sarfi  $6093,IX$  kkal/s teng bo'lgan gazlar va bo'g'zi bilan va pech futerovkasidan  $1\ 171\ 043$  kkal/s teng bo'lgan issiqlik sarflaridan tashkil topgan.  $9\ 571,9X$  teng qilib olamiz.

Shunday qilib issiqlik balansi tenglamasi jarayonning bu paytida quyidagicha.

$$6\ 093,1X + 1\ 171\ 043 = 9\ 571,9X$$

$$X_1 = \frac{1171043}{9571,9 - 6093,1} = \frac{1171043}{3478,8} = 337 \text{ кг/ч}$$

Qattiq yoqilg'ilarni eritish jarayonida olingan ma'lumotlar bo'yicha pechdag'i issiqlik balansini tuzamiz. Mazut yonganda va xavo purkalish natijasida issiqlik kelishi  $11,12 \cdot 106$  kkal/s, metallni qizdirish uchun esa issiqlik sarfi  $2,8 \cdot 106$  kkal/s teng, ajralib chiqayotgan gazlar bilan  $7,03 \cdot 106$  kkal/s, g'isht terimi orqali  $0,56 \cdot 106$  va nurlanishdan issiqlik sarfi  $0,61 \cdot 106$  kkal/s teng.

Balans natijasida misni anodli rafinirlash natijasida asosiy issiqlik ajralib chiqayotgan gazlar bilan sarflanishi ko'rindi. Bu issiqlikni qo'llash uchun anod pechlarda havoni isitish uchun rekuperatorlar o'rnatiladi, bu esa issiqlikning foydali ish koeffitsiyentini 60- 65% oshiradi.




Nazorat savollari:





1. Xomaki misni olovli rafinirlash issiqlik balansi qanday topshiriladi?
2. Issiqlik sarflanishi qaysi jarayonlarga taqsimlanadi?
3. Issiqlik kelishi qaysi jarayonlarga taqsimlanadi?
4. Nima maqsadda rekuperatorlardan foydalilanadi?

### **16-amaliy mashg'ulot**

#### *Qaynar qatlam pechlarida rux boyitmalarini kuydirish jarayonini hisoblash (2 soat)*

Kuydirish jarayonida quyidagi sulfidlarning oksidlanish reaksiyalari oqib o'tadi:





Dastlabki ma'lumotlar: rux boyitmalarining kimyoviy tarkibi, %: 52 Zn; 1.4 Pb; 6.4 Fe; 1.0 Cu; 0.4 Cd; 1.3 SiO<sub>2</sub>; 1.1 CaO; 0.7 Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; C hisobot bo'yicha, boshqalar – 100% dan farqini tashkil etadi.

Mineralogik tarkibi: rux-sfalerit shaklida ZnS; qurg 'oshin- galenit shaklida PbS; mis-1:1 nisbatlikda xalkopirit shaklida SuFeS<sub>2</sub> va kovellin shaklida CuS;

Qolgan temir- 3:1 nisbatlikda pirit FeS<sub>2</sub> va troilit FeS shaklida; kadmiy- sulfid shaklida; bo'sh tog' jinslari- kremnezem, ohak, glinozem ko 'rinishlarda mavjud bo'ladi. 6% nam dastlabki rux boyitmasi kuydirish jarayoniga keladi

Pechga 30% gacha boyitilgan kislород beriladi. Havoning ortiqcha sarfi 10% ni tashkil etadi. (ortiqchalik koeffitsienti=1,1), 2,7 % rux sulfidining miqdori.

Kuydirish davrida chang chiqish darajasi 30%ni tashkil etadi. O'zining tarkibi bo'yicha changning tarkibi kuyindining tarkibiga o'xshashdir. Changda hamda kuyindida rux quyidagi birikmalar ko 'rinishda bo'ladi: 95% ZnO; 3% ZnO•Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>; 1.7% ZnSO<sub>4</sub>; 0.3% ZnS.

Xisoblashni 100 kg boyitma bo'yicha olib boramiz.

### 16.1-jadval.

Rux boyitmasining ratsional tarkibi

Birikmalar	miqdori, kg										
	Zn	Pb	Cu	Fe	Cd	S	CaO	SiO <sub>2</sub>	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	Boshqalar	Jami
ZnS	52					25,44					77,4
PbS		1,4				0,22					1,62
SuFeS <sub>2</sub>			0,5			0,5					1,44
SuS			0,5	0,44		0,25					0,75
FeS <sub>2</sub>				3,97		4,55					8,52
FeS				1,99		1,14					3,13
CdS					0,4	0,11					0,51
CaO							1,1				1,1
SiO <sub>2</sub>								1,3			1,3
Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>									0,7		0,7
Boshqalar										3,49	3,49
Jami	52	1,4	1	6,4	0,4	32,21	1,1	1,3	0,7	3,49	100

Boyitma tarkibidagi sfalerit miqdorini topamiz, kg:

$$65,4 - 97,4 = 52 - x$$

$$x = 52 - 97,4 : 65,34 = 77,44$$

sfaleritdagi oltingugurt

$$52 \odot 32 : 65,4 = 25,44$$

Boyitma tarkibidagi galenit miqdorini topamiz, kg:

207,2 qurg ‘oshin 239,2 galenit

$$1,4-x$$

$$x = 1,4 \cdot 239,2 : 207,2 = 1,62$$

galenitdagi oltingugirt miqdori

$$x = 1,4 \odot 32 : 207,2 = 0,22$$

Boyitma tarkibidagi xalkopirit miqdorini topamiz, kg:

Misning miqdori  $1,0 : 2 = 0,5$

$$63,54 - 183,4$$

$$0,5-x$$

$$x = 0,5 \odot 183,4 : 63,6 = 1,44$$

xalkopiritdagi temir miqdori

$$55,8 \odot 1,44 : 183,4 = 0,44$$

xalkopiritda oltingugirt miqdori

$$64 \odot 1,44 : 183,4 = 0,5$$

Boyitma tarkibidagi kovelin miqdorini topamiz, kg:

Misning miqdori  $1,0 - 0,5 = 0,5$

$$0,5 \odot 95,54 : 63,6 = 0,75$$

kovelinda oltingugirt miqdori

$$0,5 \odot 32 : 63,6 = 0,25$$

Pirit va triolitdagi temirning miqdori quyidagicha ,kg:

$$6,4 - 0,44 = 5,96$$

Pirit tarkibidagi temir miqdori

$$5,96 \cdot 2 : 3 = 3,97$$

Boyitma tarkibidagi pirit miqdorini topamiz, kg:

$$55,8 - 119,8$$

$$3,98-x$$

$$x = 3,97 \cdot 119,8 : 55,8 = 8,52$$

piritdagi oltingugurt

$$8,54 - 3,97 = 4,55$$

Troilitdagi temir miqdori

$$5,96 - 3,97 = 1,99$$

Boyitma tarkibidagi triolit miqdorini topamiz, kg:

$$1,99 \cdot 87,8 : 55,8 = 3,13$$

troilitdagi oltingugurt miqdori

$$3,13 - 1,99 = 1,14$$

Boyitma tarkibidagi kadmiy miqdorini topamiz, kg:

$$112,4 - 144,4$$

0,4-x

$$0,4 \cdot 144,4 : 112,4 = 0,51$$

Kadmiy sulfididagi oltingugurt miqdori

$$0,4 \cdot 32 : 112,4 = 0,11$$

Nazorat savollari:

1. Qaynar qatlam pechlarida rux boyitmalarini kuydirish jarayonini hisoblashdan maqsad.
2. Sulfidlarning oksidlanish reaksiyalarini keltiring.
3. Rux boyitmasining ratsional tarkibini hisobotini keltiring.

### **17-amaliy mashg‘ulot**

#### ***Chiqayotgan xamda kuydirish uchun kelayotgan xavoning miqdorini hisoblash (2 soat)***

17.1-jadval

Kuydirish jarayoni gazlarini tarkibi va miqdori

Komponentlar	miqdori		
	Kg	nm <sup>3</sup>	% xajmiy
SO <sub>2</sub>	63,06	22,1	11,51
O <sub>2</sub>	4,85	3,4	1,77
N <sub>2</sub>	124,18	99,3	51,72
H <sub>2</sub>	6,0	67,2	35,0
Jami:	198,1	192,0	100

Rux sulfat hosil bo‘lishida rux sulfidlari oksidlanadi, kg.

$$77,44 \cdot 0,027 = 2,09$$

Buning uchun quyidagicha kislород talab qilinadi, kg.

$$2,09 \cdot 64 : 97,4 = 1,37$$

Va quyidagicha rux sulfati hosil bo‘ladi, kg.

$$2,09 \cdot 161,4 : 97,4 = 3,46$$

Quyidagicha miqdorda sfalirit oksidlanadi, kg.

$$77,44 - 2,09 = 75,35$$

Buning uchun quyidagi miqdorda kislород talab qilinadi, kg.

$$75,35 \cdot 48 : 97,4 = 37,13$$

Buning natijasida oltingugirt oksidi olinadi, kg.

$$75,35 \cdot 64 : 97,4 = 49,51$$

Galenit oksidlanishi uchun kerak bo‘ladigan kislород miqdori, kg.

$$1,62 \cdot 48 : 239,2 = 0,33$$

Quyidagisha oltingugirt angidridi olinadi, kg.

$$1,62 \cdot 64 : 239,2 = 0,43$$

Xalkopirit oksidlanishi uchun kerak bo‘ladigan kislorod miqdori, kg.

$$1,44 \odot 192 : 366,4 = 0,75$$

Quyidagicha oltingugirt angidridi olinadi, kg.

$$1,44 \odot 256 : 366,4 = 1,01$$

Kovelin oksidlanishi uchun kerak bo‘ladigan kislorod miqdori, kg.

$$0,75 \odot 80 : 190,8 = 0,31$$

Quyidagicha oltingugurt angidridi olinadi, kg.

$$0,75 \odot 129 : 190,8 = 0,51$$

Pirit oksidlanishi uchun kerak bo‘ladigan kislorod miqdori, kg.

$$8,52 \odot 176 : 239,6 = 6,26$$

Quyidagi oltingugurt angidridi olinadi, kg.

$$8,5 \odot 2256 : 239,6 = 9,1$$

Triolit oksidlanishi uchun kerak bo‘ladigan kislorod miqdori, kg.

$$3,13 \odot 112 : 175,6 = 2,0$$

Quyidagicha oltingugurt angidridi olinadi, kg.

$$3,13 \odot 128 : 175,6 = 2,28$$

Kadmiy sulfidi oksidlanishi uchun kerak bo‘ladigan kislorod miqdori, kg.

$$0,51 \odot 48 : 144,4 = 0,2$$

Quyidagicha oltingugurt olinadi, kg.

$$0,5 \odot 164 : 144,4 = 0,22$$

Boyitmadagi barcha sulfidlar oksidlanishi uchun kerak bo‘ladigan kislorod miqdori, kg.

$$1,37 + 37,13 + 0,33 + 0,75 + 0,31 + 6,28 + 2,0 + 0,2 = 48,37$$

Qaynar qatlam pechida kuydirishni amalga oshirish uchun 30% gacha kislorodga boyitilgan xavo beriladi, buni hisobga olgan holda sarflanadigan havo miqdori quyidagicha, kg

$$48,37 \odot 100 : 30 = 161,23$$

Havoning ortiqcha olish darajasi 10%. Unda amaliy jihatdan sarflanadigan havoning miqdori, kg.

$$161,23 \odot 1,1 = 177,4$$

Shuncha miqdordagi havoning tarkibida kislorod miqdori, kg.

$$\text{kislorod } 177,4 \odot 0,3 = 53,22$$

$$\text{azot } 177,5 \odot 0,7 = 124,18$$

kuydirish natijasida quyidagicha oltingugirt angidridi olinadi, kg.

$$49,51 + 0,43 + 1,01 + 0,51 + 9,1 + 2,28 + 0,22 = 63,06$$

Kuydirish jarayoniga 6 % nam bo‘lgan rux boyitmasi keladi.

Gaz fazasiga o‘tib ketadiganlar:

azot - 124,18

kislorod  $53,22 - 48,37 = 4,85$

oltingugurt angidridi- 63,06  
suv- 6,0

Nazorat savollari:

1. Kuydirish jarayoni natijasida ajralib chiqgan gazlarini miqdorini hisobotini keltiring.
